

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA FAKULTETI**

**GEOGRAFIYA VA EKALOGIYA ASOSLARI KAFEDRASI**

**“DAK ga tavsiya etaman”  
Tabiiy fanlar va Geografiya  
fakulteti dekani**

**dots.A.Nazarov**

“ ” 2014 yil

«Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish muommolari. (Namangan viloyati misolida)

**MAVZUIDAGI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

Bajardi: «**Geografiya**» ta'lim yo'nalishi  
bitiruvchi 4-kurs talabasi **Raxmatullaev A.A**

Rahbar: g.f.n., A.Baratov..

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi. Kafedraning 9-sonli bayonnomasi. «22» aprel 2014 yil.

## MUNDARIJA

**KIRISH.....3**

### **I.BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI**

1.1 Chorva resurslari qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida.....7

1.2 Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish.....26

1.3 Yer resurslaridan foydalanishning huquqiy-me'yoriy asoslari.....31

### **II.BOB. NAMANGAN VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGIDA YER RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNING MUAMMOLARI**

2.1 Namangan viloyati qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy-geografik tahlili.....43

2.2 Namangan viloyatida yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari.....55

2.3 Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari.....64

Xulosa.....70

Foydalanilgan adabiyotlar.....73

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Jamiyat taraqqiyotining tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keskinlashgan hozirgi bosqichida, yer resurslaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi. SHu boisdan ham bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yer resurslarini muhofaza qilish va undan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini yaratishga ayniqsa katta e'tibor qaratilmoqda. CHunki qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi yer resurslaridan foydalanishning holati bilan chambarchas bog'liqdir. Qishloq xo'jaligi esa aholini oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlaydigan iqtisodiyotning asosiy tarmog'idir.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi.<sup>1</sup>

Yerlarning meliorativ holatiga yaxshilash xozirgi kundagi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda sug'oriladigan yerlarning qariyb 8 foizining meliorativ holati yomon bo'lib, bu avvalo tuproqning sho'rlanish darajasi yuqoriligi va yer osti suvlarining ko'tarilishi bilan bog'liq. Salkam 330 ming gektar yer meliorativ holati qoniqarsizligi tufayli qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lib turibdi.

Sug'oriladigan yerlarning sifatini baholashning umumiy ko'rsatkichi bo'lgan yer boniteti so'nggi yillarda 55 balgacha pasaydi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm, Buxoro va Sirdaryo, Farg'ona va Toshkent hamda boshqa bir qator viloyatlarda ahvol murakkabligicha qolmoqda.

---

<sup>1</sup>2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "Xalq so'zi" gazetasi 2014 yil 18 yanvar №13 (5953)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi "2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1958-sonli qarori va mazkur qaror asosida Vazirlar Mahkamasining 39-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan 2013-2017 yillar davomida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish dasturi qabul qilindi va dasturni bajarish doirasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

- 3,85 ming km ochiq kollektor-drenaj hamda 1,26 ming km yopiq-yotiq drenajlarni tarmoqlarini, 907 dona tik drenaj, 35 ta meliorativ nasos stantsiyasi, 226 dona gidrotexnik inshootlarni qurish va rekonstruktsiya qilish;

- 2,1 ming km kanallarni tozalash, 96 dona gidrotexnik inshoot, 97 dona nasos stantsiya, 36 km nasos stantsiyalarning bosimli quvurlarini ta'mirlash, 36 km qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari olib borish va boshqalar;

- SIU va fermer xo'jaliklari hisobidagi 558,5 ming km uzunlikdagi sug'orish tarmoqlari, jumladan 111,0 ming km beton kanal va lotoklar, 174,1 ming gidrotexnik inshootlar, 11,5 ming dona nasos agregatlar, 252,6 ming dona suvni boshqarish inshootlari ta'mirlanadi va suv o'lchash vositalari bilan jihozlash ishlari amalga oshiriladi

Bugungi kunda yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish respublikamiz hukumati oldida turgan eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. SHunday sharoitda mavjud qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish masalalarini iqtisodiy - geografik jihatdan o'rganish mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi oldidagi asosiy maqsad Namangan viloyati qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish borasidagi mavjud muammolar yechimini aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish taqozo qilinadi:

- Namangan viloyatida yer resurslaridan foydalanish holatini tadqiq etish;
- erdan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish;
- viloyatda yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini o'zgarishi sharoitida yerdan foydalanish holati tahlil qilish;
- Viloyatda yer resurslaridan istiqbolda samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish yo'nalishlarini aniqlash va bu bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, ulardan ilmiy asosda foydalanishni takomillashtirish muhim masalalardan biridir. Bu esa yer resurslardan foydalanishni yaxshilash, ularni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu borada, ayniqsa qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari A.A.Rafiqov, Q.N.Abirqulov, A.N.Xojimatov, T.J.Jumaev, N.R.Rajabov, O.Abdullaev, Q.CHoriev, N.Sotivoldiev, A.Baratov K.Sirojdinov va boshqalarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

SHunday bo'lsada, mahalliy xo'jaliklar iqtiyosodiyotida sezilarli darajada, hatto,aytish joizki, yetakchi o'rinni egallagan yer resurslaridan foydalanish masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etishni talab etadi. Masalaning bu jihatlari yechimi esa o'z navbatida yer resurslaridan oqilona foydalanish muammolarni o'rganish, ularning yechimlarini aniqlash va aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi quyidagilarda o'z ifodasini topgan

- Er resurslarining foydalanishning ilmiy – nazariy asoslari taxlil qilindi.
- Namangan viloyatida yer resurslaridan foydalanish holatini o'rganildi.
- Viloyatda yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini o'zgarishi sharoitida yerdan foydalanish holati tahlil qilindi.
- Viloyatda yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish yo'nalishlarini aniqlash va bu bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot ob’ekti va predmeti.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob’ekti Namangan viloyati yer resurslaridan samarali foydalanish masalalaridir. Tadqiqot ishining predmeti sifatida yer resurslaridan foydalanish qonuniyatlari, xususiyatlari hamda ulardan foydalanish samaradorligini o’rganish kabilar gavdalantirilgan.

**Ishning metodologik asoslari va tadqiqot usullari.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishga oid qonun xujjatlari, mamlakat Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan g’oyalar hamda mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qonuniyat va tamoyillar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi yozish jarayonida iqtisodiy-geografik taqqoslash, mantiqiy fikrlash, kartalashtirish, statistik tahlili, bashoratlash va boshqa usullardan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida yer resurslaridan foydalanish ahamiyati katta va istiqbolda bu rol yanada oshib boradi. SHu nuqtai nazardan ham, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi tizimida yer resurslaridan foydalanish masalalarini tadbiq qilish orqali, mahalliy xo’jaliklar iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda mustahkamlash yo’nalishlarini ishlab chiqish imkoni mavjud.

Mazkur bitiruv malakaviy ishidan tadqiqot ob’ekti hisoblangan Namangan viloyati qishloq xo’jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish bo’yicha mahalliy dasturlar ishlab chiqishda hamda ularni rivojlantirish yo’nalishlarini belgilashda foydalanish mumkin.

**Ishning tarkibi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, 77 betdan iborat, shundan yozma matn 72 bet, 10 ta jadval 1-kartaxema xulosa, 48 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

## **I-BOB. O'ZBEKISTONDA YER RESURSLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI**

### **1.1. Yer resurslari qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida**

Er resurslari qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarni sifati, miqdori ko'p jihatidan yer resurslarining holatiga bog'liq. Yer insonning bebaho boyligi, yer o'simliklar dunyosi bilan birgalikda insonni oziq-ovqat bilan ta'minlaydi, kiyintiradi, qurilish materiallari va tibbiy ashyolar bilan ta'minlaydi.

Erni jamiyatdagi ahamiyati beqiyosdir. Unda fuqarolar yashashi uchun binolar quriladi. Turli maxsulotlar yetishtiriladi. Demak, yerning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ahamiyati ulkan. Chunki u shu tarmoqning eng asosiy ishlab chiqarish vositasi xisoblanadi. Yerga urug', ko'chat ekib, ishlov berish natijasida turli xildagi maxsulotlar yetishtiriladi. Demak tarmoqda yetishtiriladigan barcha turdagi maxsulotlar yerdan, suvdan foydalangan xolda olinar ekan. Yer ingliz iqtisodchisi Uilyam Pettining aytishicha, «er boylikning onasi». Respublika dehqonchiligi sug'orishga asoslangan. SHuning uchun suv xam yer kabi eng zarur vosita xisoblanadi.

Bu borada, avvalo, yerlarning unumdorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Aytish kerakki, bu yo'nalishdagi ishlarning ko'lami yil sayin kengayib borayotganiga qaramasdan, sug'oriladigan yerlarning mavjud meliorativ holati katta tashvish uyg'otmoqda.

Faqat yerga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish – bu qishloqni va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan yo'ldir.<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "Xalq so'zi" gazetasi 2014 yil 18 yanvar №13 (5953)

SHuning uchun ona-erni muhofaza qilish har bir kishining muqaddas burchidir. Yer kurrasining quriqlik maydoni (muzliklarni ham qo'shib hisoblaganda) 15 mlrd ga teng, shundan muzliklar maydoni 1,7 mlrd ga, yaylovlarni maydoni 3 mlrd ga, haydalgan yerlar maydoni 1,5 mlrd ga teng, qariyb 400mln ga yer sug'oriladigan dehqonchilik bilan band. Lekin yer resurslari turli sabablarga ko'ra muomaladan ( har yili qariyb 15 mln ga) chiqib boradi, chunonchi, sanoat ob'ektlari va shaharlar qurilishi uchun taxminan 8 mln ga, eroziya natijasida 3 mln ga, inson tomonidan zaharlanish natijasida 2 mln ga yer, suv bosishi, sho'rlanish tufayli esa 2 mln ga atrofida yerlar ishlab chiqarish muomalasidan chiqib bormoqda. Butun tsivilizatsiya davrida insoniyat turli sabablarga ko'ra (eroziya, sho'rlanish, shaharlar ostida, yo'llar qurilishi, suv omborlari va boshqalar) jami bo'lib taxminan 2,5-3 mlrd gektar yer maydonidan ajraldi.

Er po'stining eng ustki unumdor qismi tuproq bo'lib, u litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferada uzoq vaqt mobaynida bir biri bilan bog'liq bo'lgan fizikaviy, kimyoviy va biologik jarayonlar natijasida vujudga kelgan. Tuproq unumdorligini vujudga kelishida tirik mavjudotning, ayniqsa mikroorganizmlarning roli katta bo'lib, ular hayot faoliyati va halok bo'lishi natijasida tuproqni ma'lum miqdorda organik moddalar bilan boyitadi. SHu tariqa tuproqning ustki qatlamlarida unumdor qismi vujudga keladi. Bu qismdagi organik moddalarning ba'zilari, bir tomondan, suv ta'sirida erib, sizot suvlar satxigacha yuvilib tushsa, ikkinchi tomondan, o'simliklar ildizlari orqali o'sha tuproqning chuqur qismida o'sishi uchun zarur bo'lgan birikmalarni biriktirib oladi. Natijada o'simlik tuproqdan olingan mineral moddalar o'simlik halok bo'lgandan so'ng tuproqning ustki qatlamida qoladi. Tuproqdagi o'sha organik qoldiqlarining parchalanishidan birikmalar xosil bo'ladi.

Shunday qilib, tuproq tarkibida o'simlik va hayvon qoldiqlarining chirishidan hosil bo'lgan maxsulotlardan gumus vujudga keladi. Demak, moddalarning aylanmaa harakatida tuproq ham ishtirok etadi, uni olimlar biologik aylanma deb atagan. Bu aylanma jarayon tufayli tuproqning unumdorlik xususiyati

doimo saqlanib turadi. Bu sohada organik va mineral o'g'itlarning roli juda katta. O'g'itlar tufayli yangi oziq moddalar vujudga kelibgina qolmay, balki tuproqning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari yaxshilanib boradi hamda unumdorligi oshadi. Demak, tuproq tabiatning boshqa elementlari bilan doimo aloqada bo'lib moddalarning umumiy aylanma harakatida muhim rol o'ynaydi. Tuproq, eng avvalo, o'simlik, xayvonlar va mikroblar bilan birga murakkab ekologik tizimni (biogetsenoz) vujudga keltiradi va planetamiz biosferasida xayotning yashashini ta'minlashdek muhim vazifani bajaradi.

Litosfera bilan atmosfera o'rtasida moddalarning almashinishi ham tuproq ta'sirida sodir bo'ladi. SHamol natijasida tuproq ustidan ko'tarilgan chang-to'zonlar atmosferaga yetib, havoning tiniqligiga putur yetkazadi, yer yuzasiga kelayotgan yorug'lik energiyasi ta'sirini susaytiradi, yog'inlarning vujudga kelishiga ham ta'sir etadi. Yog'in suvlari va shamol ta'sirida tuproq mikrorelyefi o'zgaradi.

Inson yashash uchun zarur bo'lgan ozuqa resurslarini ham, okean va dengiz resurslarini hisobga olmaganda, o'z hayoti uchun kerak bo'lgan hamma narsani tuproqdan oladi. Hozir yer shari quruqlik yuzasining 10,8% i haydab ekin ekiladigan yerlardir. Yer sharidagi ekinzorlar umumiy maydonining faqat 14% i sug'oriladigan yerlardir; ana shu sug'oriladigan yerlardan olingan hosil hozir dunyo aholisining 50 foyizini oziq-ovqat bilan ta'minlamoqda. Ko'rinib turibdiki, planetamizda hali ekin ekishga va sug'orishga yaroqli yer resurslari ko'p.

Sayyoramizda tuproq qoplami tabiatning boshqa komponentlari kabi ekvatoridan shimolga va janub tomon zonal o'zgarib boradi, tog'lik yerlarda esa balandlik mintaqalari hosil qiladi. Joyning geologik tuzilishi, iqlimi, o'simliklari va boshqa tabiat komponentlari ta'sirida har bir tabiat zonasining tuproqlari turlichadir. Yer shari quruqlik yuzasi umumiy maydonining 31 foyiziga yaqini tuproqlari uncha rivojlanmagan joylarga to'g'ri keladi (15 foyizini muz va tundra zonalari, 15,2 foyizini tog'lar, 0,7 foyizini quruqlikdagi suvlar ishg'ol qiladi). Qolgan 69 foyizini esa tuprog'i yaxshi rivojlangan o'rmon, o'rmonli dasht, chala

cho'l, cho'l, savannalar, sub'tropik, tropik zonalar va daryo vodiylaridagi allyuvial tuproqli yerlardir.

Tabiat zonalarida tuproq qoplaminin tarkibi va qishloq xo'jaligida foydalanishi xamda tabiiy omilga ta'siri turlicha bo'ladi. Mo'tabdil mintaqada joylashgan keng bargli va aralash o'rmonlarda sur tusli o'rmon tuproqlari, o'rmonli dasht va dashtlarda qoramtir va qora tuproqlar zonolari hozircha ko'proq o'zlashtirilgan. Bu tuproq zonalarida butun yer maydonining 26-35% ini ekinlar va o'simliklar ekilgan joylar egallaydi. Dehqonchilikda foydalanish darajasi jihatdan qizil tuproqli subtropik zona 13% ni, kashtan hamda qo'ng'ir tuproqli cho'llar zonasi 7% ni, issiq mintaqada joylashgan bo'z tuproqli cho'l zonasi 2% ni va qizil-qo'ng'ir tuproqli savanna 2% ni egallaydi. Tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli tundra zonasida dehqonchilikda foydalaniladigan yerlar yo'q. Dunyo yer resurslari 13393 mln.ga bo'lsa, shundan 4041 mln.ga (30,1%) o'rmonlar bilan qoplangan yerlar, 2987 mln.ga (22,3%) o'tloq va yaylovlar, 1457 mln.ga (10,8%) haydaladigan va ekin ekiladigan yerlar, qolgan 4908 mln.ga (36,8%) qumli cho'llar, muzlik va qorliklar, qishloq va shaharlar, sanoat ob'ektlari ishg'ol qilgan yerlarga to'g'ri keladi.

Sayyoramiz tuproq qatlami tabiiy holatining o'zgarishiga qishloq xo'jalik ishlari bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar – tuproqqa mineral o'g'itlar solish, tuproq sho'rini yuvish; yerlarni tekislash) va h.k.lar muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining maydoni 448,9 ming km<sup>2</sup>. SHundan qishloq ho'jaligida foydalanadigan yerlar 28081 ming ga, sug'oraladigan yerlar maydoni 4,2 mln ga dan ziyod, yaylovlar va pichanzorlar-22965,0 ming ga, lalmi haydalanidigan yerlar 765 ming ga, o'rmonlar maydoni 1,3 mln ga, foydalanimaydigan davlat zahirasidagi yerlar maydoni 15309,9 ming ga ni tashqil qiladi.

Quruq iqlim sharoitida sug'oriladigan yerlar beqiyos ahamiyatga ega. Obikor yerlar respublikada yer maydonining 10% qismini egallagan holda o'simlikshunoslik bo'yicha yetishtiriladigan barcha mahsulotning 95% ini yetkazib beradi. Sug'oriladigan yerlarning har bir qarichidan samarali foydalanish o'ziga

xos ahamiyat kasb etadi. Ularning mahsuldorligini barqaror oshirib borish, biror gektar maydonning ham muomiladan chiqib ketishga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning asosiy vazifalaridan biriga aylanishi lozim.

Avvalari respublikada paxta yakka hokimligi hukm surgan davrlarda asosiy maydon (qariyb 2 mln ga yer) g'o'za bilan band bo'lgan, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng sug'oriladigan yerlardan foydalanish strukturasi jiddiy o'zgardi.

Boshqoli ekinlarning maydonini 1 mln. gektarga qadar kengaytirilganligi g'alla mustaqilligiga erishish niyati bilan bog'liq. Albatta, g'alla ham, yem-hashak ham mamlakat uchun zarur. Lekin beda ekiladigan maydonning 673 ming ga dan 232 ming ga qadar kamaytirilishi sug'orma yerlarining mahsuldorligiga salbiy ta'sir etishi sezilmoqda, shuningdek Chorva uchun ham ozuqa kamayib bormoqda. Paxta hosildorligi har gek. maydondagi 26 ts dan 22,4 ts ga cha kamaydi, yem-hashakli ekinlarniki esa 1,5 marta pasaydi. To'g'ri tan olish kerakki, sug'orma yerlarning ekinlar ekish strukturasi haligacha takomillashmagan. Biznincha, tuproq unumdorligiga ziyon yetkazmagan holda, uning mahsuldorligini borgan sari orttirib borish asosiy maqsad bo'lishi lozim.

Turli sabablarga ko'ra har yili ayrim maydonlarga ekinlar ekilmay qolib ketishi sodir bo'ladi. O'rtacha 130-140 ming gektar sug'orma yerlardan foydalanilmaydi. CHunonchi, 2010 yilda Qoraqolpog'iston Respublikasida 27,6, Qashqadaryoda-21,9, Sirdaryo viloyatida 14,4 ming ga yer foydalanilmagan.

Lalmi yerlar respublika tog' oldi va past tog'larda mavjud bo'lib, ularning jami maydoni qariyb 500 ming gek. yaqin. Olinadigan g'alla hosili o'rtacha (atmosfera yog'inlarining miqdoriga qarab) 8-12 tsen. gacha boradi. 2011 yil seryog'in-sochin bo'lganligi tufayli adirlar va tog'lardagi lalmikor yerlarda bug'doy hosildorligi 14-18 tsen. ga yetdi.

Vohalarning tabiiy-meliorativ sharoitlari ularning joylashgan hududlariga ko'ra turlicha: daryolarning yuqori terrasalarida grunt suvlarning yotiq oqimi to'la ta'minlanganligi tufayli ularning chuqurligi 8-10 pastda joylashgan, binobarin tuproqda to'z to'planishi yuz bermaydi, faqat qiyaroq (2-3°) tekisliklarda yuzaki

yoki chuqurlama eroziya hodisasi yuz berishi mumkin. Daryolarning quyi qismlari-deltalari, soylarning konus yoyilmalarining o'rta va etaklaridagi hududlar mexanik tarkibi asosan og'ir bo'lgan qumoq va qumloq, gil, goho qumli yotqiziqlardan to'zilgan, ularning ostida ( baʼzan 5-20 metr va undan ko'p) regional holda neogen davrining gil yoki qum yotqiziq-lari joylashgan. Yer betiga yaqin joylashgan lyossimon yotqiziq-larning suv o'tkazuvchanlik qobiliyati nihoyatda kam bo'lganligi ( $K_f$  sutkasiga-0,01-0,005 m) va delta tekisliklarining nishabligi juda ham yotiqligi (qiyalik bo'yicha 0,001-0,0002) tufayli grunt suvlarining harakati nihoyatda sust, umuman olganda oqim sezilmaydi, faqat tik harakat nihoyatda kuchli yuz beradi. Gap shundaki, grunt suvlarining oqib kelishi sezilarli, lekin oqib ketishi yo'q darajada. Demak, tik harakatning kuchliligi sababli vegetatsiya davrida grunt suvlarining yer betiga yaqinligi kuchayadi, ularning chuqurligi bu holda 1-3 m, baʼzan 3-5 m tashkil qiladi. Bug'lanish natijasida grunt suvlarining minerallasuv darajasi ortib boradi, bug'lanishga sarf bo'lgan namlikning to'zlari tuproqda to'plana boradi. Shuning uchun ham g'o'za, makkajo'huri egatlarida yozning ikkinchi yarimida oppoq to'z qoplami vujudga keladi. Daryolarning kuyi terrasalarida ham ushbu hodisa yuz beradi, lekin bu hududlarda to'z to'planish darajasi uno'chalik kuchli tarzda ro'y bermaydi.

Tuproqlarda to'z to'planish hodisasi Mirzacho'l, Jizzah, Qarshi, SHerobod cho'llari, Markaziy Farg'ona, Horazm, Qoraqalpog'iston, Buhoro, Qorako'l vohalarida kuchli yuz beradi. Grunt suvlari sathini pasaytirish maqsadida avvaldan zovur tarmoqlari vujudga keltirish asosida sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib kelinadi. Samarali ishlaydigan zovur tarmoqlari qishda yerning yuvish bilan bir majmuada yaxshi natija beradi, to'z to'planishini oldini olishga erishiladi. Faqat grunt suvlari sathining 2,5-3 met.dan pastda saqlash bilan kuchli tarzda to'z to'planishni oldi olinadi. Bunda grunt suvlarining minerallasuv darajasi har litrda 5 gr. dan ortganda shuncha chuqurda, agarda u 3-5 gr. bo'lgan taqdirda 2-2,5 met. da saqlash ham yaxshi natija beradi.

Viloyatlar bo'yicha sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi turlicha

Keyingi vaqtlarda daryolarga tashlanishi tufayli sug'oraladigan suvlarning minerallashuvi ularning o'rta va quyi oqimlarida 0,3-0,6 g dan 0,8-1,6, (ayrim joylarda undan ko'p) gacha, bu hol ulardan sug'orishda foydalanilganda tuproqda ortiqcha to'zlarni to'planishiga olib kelmoqda. Mutaxassislarining hisob-kitobicha har gektar maydonga Quyi Amudaryoda 9-27t. to'z daryo suvi orqali yotqizilimoqda. Bu hol mavjud zovur tizimlarini nihoyatda samarali ishlashi, shuningdek ularning zichligini yanada ko'paytirishga ta'sir etmoqda. To'g'ri, sug'oriladigan yerlardan katta miqdorda to'zlar zovur suvlari bilan birgalikda chiqarilmoqda, lekin vohalar barcha joylarda yuqori samara bilan ishlaydigan zovur tarmoqlari bilan to'la ta'minlanmagan. Buning hisobiga joylarda musbat to'z balansi mavjud. Masalan, Horazm vohasida 1970 yilda kuchli va o'rtacha sho'rlangan yerlar maydoni 22,4 % dan 2010 yilga kelib 42,1 foizga oshdi. Huddi shunday ahvol Qoraqalpog'istonda ko'zatilmoqda. Bundan shunday hulosalar chiqarish mumkin, ya'ni daryo suvlarining sho'rligini avvalgi tabiiy (1961 gacha bo'lgan) holdagi ko'rsatkichlargacha kamaytirish darkor.

Sug'oriladigan yerlarning mahsuldorligi deflyatsiya (shamol eroziyasi) natijasida ham kamayadi. Shamol tuproqning ustki unumdor qismini uchirib ketishi tufayli uning gumusli (chirindili) qatlami kamayib boradi, mexanik tarkibi yengilashadi, foydali elementlar va chirindining uchib ketishi kabi holatlarning sodir bo'lishi tuproqning qashshoqlanishiga olib keladi. Masalan, Markaziy Farg'ona (Qo'qon tumanlari), Qarshi, SHerobod, Mirzacho'l cho'llarida tuproq shamoldan jiddiy zarar ko'rgan. Hozir respublikamizdagi sug'oriladigan yerlarning atiga 1,2 mln. gektar qismi shamol eroziyasidan himoya qilingan. Barcha yerlarning eroziyadan saqlash uchun mavjud bo'lgan 40 ming gektar ihotazorlar maydonini 112 ming gektarga yetkazish lozim. Quyi Amudaryoning sug'orilmaydigan shimoliy hududlarida antropogen cho'llashishni 60 - yillardan boshlab kuchayishi tufayli shamol faoliyati, ayniqsa kuchaib bormoqda. Mavjud to'qay tuproqlari, ya'ni o'tloq-taqirli, qurigan o'tloq va botqoq tuproqlarning chirindiga boyligi (1-5% va undan ziyod) bilan ajralib turadi. Grunt suvlarning sathining keskin tushib ketishi natijasida bu tuproqlarning yuqori qatlamlari juda

ham qurib ketdi, avvalari zich holda o'sgan to'qay o'simliklari ham namlikning yetishmasligi oqibatida ancha siyraklashdi, natijada shamolning eroziya taʼsiri ancha jiddiy tus oldi. Endilikda deflyatsiya chirindiga boy to'qay tuproqlarning qatlamlarini uchirib ketishi tufayli ular qashshoqlanib bormoqda. Tekshirishlar natijalariga ko'ra, ularning joylarda yuqori 0-5 sm li qatlami barcha joylarda zarar ko'rgan, baʼzan shamol o'ygan chuqurliklar 5-15 sm. dan 0,5 met. gacha boradi. Sug'orma eroziya lyoss va lyossimon yotqiziqalarda relʼef qiyaligi 2<sup>0</sup> dan ortishi bilan boshlanadi va 3,5<sup>0</sup> da ancha tezlashdi. H.M. Maqsudov (1989) olib borgan tajriba ishlarida aniqlanishicha relʼef qiyaligi 3,5<sup>0</sup> bo'lgan g'o'za parvarishlanayotgan dalada bir marta sug'orilganda gektariga 1-12 t, vegetatsiya davrida esa 14-40 dan 54 ton. gacha tuproq yuvilgan. M.A. Pankov (1965) ning ma'lumotiga ko'ra, 3-5<sup>0</sup> qiyalikka ega bo'lgan daladan suv bilan yuvilib tushgan mahsulot tarkibida 94% mayda tuproq va faqat 6% qum bo'lgan, shuningdek unda 2% gumus va ko'p miqdorda azot aniqlangan. SHuning uchun ham eroziyaga duchor bo'lgan yerlarda ekinzorlardan olinadigan hosil cho'g'i eroziyaga uchramagan meʼyordagi yerlarga nisbatan ikki marta kam bo'lishligi aniqlangan. Irrigatsiya eroziyasi daryolarning 1-2terrasalarida, konus yoyilmalarining yuqori qismlarida keng tarqalgan. Ayniqsa, Toshkent viloyatining Yangiyo'l, CHinoz, Piskent, Ohangaron, Jizzah viloyatining G'allaorol, Surhondaryo viloyatining Boysun, Qashqadaryo viloyatining Qamashi, CHiroqchi, Yakkabog', Kitob, SHahrisabz, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, Urgut va boshqa tumanlarida rivojlangan.

### 1-jadval

#### O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishi, ming gektar

Viloyatlar	Sug'oriladigan yerlar maydoni	Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha taqsimlanishi			
		sho'rlanmagan	kuchsiz	o'rtacha	kuchli va juda kuchli

Andijon	275,1	245,2	14,9	14,9	-
Buhoro, Navoiy	271,8	15,4	160,1	62,5	33,8
Jizzah	290,6	51,7	161,1	73,3	4,1
Qashqadaryo	497,4	275,1	162,3	45,9	13,7
Namangan	282,4	233,6	33,1	2,7	0,9
Samarqand	370,3	351,2	12,9	5,3	0,9
Surhondaryo	326,2	196,8	75,4	50,2	3,8
Sirdaryo	296,5	12,9	220,9	48,7	13,9
Toshkent	377,1	366,9	7,8	2,1	0,3
Farg'ona	351,6	140,8	173,1	32,0	5,7
Horazm	270,8	-	162,3	77,5	31,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	500,9	35,9	230,1	181,9	53,0
O'zbekiston Respublikasi	4220,2	1942,9	1483,9	628,0	165,6

**Manba. Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi**

Lalmikor yerlarda eroziya yanada keng miqyosda ro'y beradi. H.M.Maqsudovning hisob-kitobicha bu maydon 700 ming gek. dan ziyod. Tuproq eroziyasida sodir bo'ladigan yuzaki chuqurlama (ariqchali) eroziya turlari ma'lum qulay sharoitlarda jar Eroziyasiga o'tib boradi. Jar eroziyasi jarayonida hudud butunlay ishdan chiqadi, chunki 5-10 met. chuqurlik va 20-30 met. li jarlik vujudga kelishi natijasida o'ydin-chuqurlik tarkib topadi va u rel'ef jihatidan ho'jalikda foydalanishdan chiqib ketadi.

Sug'oriladigan yerlarning zovur tarmoqlariga bo'lgan ehtiyoj qismi 3,3 mln.gektarni tashkil qiladi, amalda ularning 85% i zovur tarmoqlari bilan ta'minlangan. SHundan 2,4 mln gektarda yotiq va 0,4 mln gektarda tik zovurlar bilan ta'minlangan. Yopiq, yotiq zovurlar 581 ming gektarda mavjud. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'orma yerlarning irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini boshqarish ancha murakkab bo'lmoqda, chunki ularni har yili ta'mirlash, tozalash, bo'zilgan yoki ishdan chiqqan qismlarni yangilari bilan almashtirish kerak, texnika vositasi, elektroenergiya, neft mahsulotlari zarur. SHuning uchun ham ochiq va yopiq, yotiq zovurlar bir necha yillardan beri tozalanmaydi, tik zovurlarning

(ularning soni 5 mingga teng) 50%i mutlaqo ishlamaydi. Ehtiyot qismlar yetishmaydi, elektroenergiya qiimmat.

Zovur tarmoqlarini muntazam tozalab va taʼmirlab turilmasligi natijasida ularning aksariy qismi yarmigacha toʻlib qolgan (ishchi zovur chuqurligi meʼyorida 2,6-3,6 met. boʻlishi lozim). Buning natijasida zovur atrofidagi grunt suvlarini tortib ololmaydi, binobarin ularning sathi yer betiga yaqin turadi va shoʻr lanish manbaiga aylanadi. Quyi Amudaryoda sugʻoriladigan yerlarning meliorativ ahvoli juda ogʻir, boz ustiga Qoraqalpogʻistonning ayrim hududlari zovur tarmoqlariga ega emas, mavjud zovurlarning samaradorligi nihoyatda past, ular shoʻr zovur suvlarini bazur chetga chiqarib tashlamoqda. Bu oʻlkada melioratsiya boʻyicha mahsus dastur asosida katta ishlarni amalga oshirish zarur. Gap shundaki, 0,5 mln gektar sugʻorma yerlarning har gektar maydonida katta samara bilan ishlaydigan (hozirda oʻrtacha 32-35 m) oʻzunligi 50-60 m (paxta maydonlarida) boʻlgan yotiq zovur tarmoqlari qurilishi zamon talabiga aylandi. Yerlarni kapital va joriy tekislash, koʻzgi va qishki shoʻr yuvish ishlarini oʻz vaqtida sifatli oʻtkazish darkor. 2013-2017-yillarda sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturini qabul qilindi.

## 2-jadval

### Oʻzbekistonda eroziyaga berilgan tuproqlar maydoni

Eroziya turlari	Maydon		oʻrtacha va kuchli yuvilgan, yoki deflyatsiyaga uchragan
	ming ga	%	

uproq Eroziyasi, shu jumladan:			
a) tog' yaylovlarda va pichanzorlarda	5644,9	12,7	3700,0
b) haydaladigan Yerlarda	1422,3	3,1	705,6
lalmi Yerlarda jala Eroziyasi	700,4	1,5	416,5
sug'oriladigan Yerlarda	721,9	1,6	289,1
2.Deflyatsiya, shu jumladan:	21873,4	48,7	-
cho'l yaylovlarida	20031,9	44,6	-
sug'oriladigan Yerlarda	1841,5	4,1	-
3.Tuproq Eroziyasi va deflyatsiyaning birgalikda ro'y berishi	1929,4	4,3	<b>775,9</b>
4.Eroziya va deflyatsiyaga berilmagan Yerlar			
Jami	14024,4	31,2	-
	44884,4	100	-

**Manba. Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi**

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, barcha manfaatdor idoralar, fermerlar kengashi va avvalambor fermer xo'jaliklarining o'zi ushbu dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashi darkor. Vazirlar Mahkamasi mazkur dastur ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatdi.<sup>3</sup>

Mirzacho'l, Jizzah cho'li, Buhero vohasi, SHerobod cho'lidagi sug'oriladigan yerlarda yetarli darajada (gektariga 35-40, joylarda 50-60 m) zich zovur tarmoqlari vujudga keltirilgan, ammo ularning asosiy qismi loyqa bilan to'lib qolgan, qamish, qo'g'a bosib yotibdi, agarda ularni muntazam tozalashga erishilsa va sho'r yuvish ishlarini sifatli amalga oshirib borilsa, tuproqdagi to'zdan holi bo'lish tezlashadi. Bu borada tashkiliy ishlarni to'g'ri va rejali olib borish, ishni paysalga solmasdan o'z vaqtida bajarishga erishishni ta'minlash lozim.

---

2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi"Xalq so'zi" gazetasi 2014 yil 18 yanvar №13 (5953)

Sug'oriladigan yerlarning mahsuldorligini pasayishi ko'p hollarda eroziya bilan bog'liq. Tuproqda o'simlik ildizi rivojlanadigan qismining shamol ta'sirida bo'zilishi (chirindi miqdorini kamayishi, mexanik tarkibini dag'allashuvi, foydali mikroelementlarni yo'qolishi va boshq.) uni vegetatsiya sharoitlarini noqulay ahvolga olib keladi. SHuni e'tiborga olib tuproq yuvilishini oldini olish zarur, chora-tadbirlar tizimini tatbiq qilish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, qiya yonbag'irlarni haydashga alohida ahamiyat berish zarur. Yerlarni ko'ndalangiga chuqur haydash yomg'ir suvlarini tuproq qatlamlariga chuqur kirib borishiga imkon beradi, binobarin tuproqning zichlanib ketmasligi oqibatida namlik tezda singib ketadi, bunda oqim vujudga kelmaydi. Irrigatsiya eroziyasini boshlanmasligi uchun egatlarga suv taralayotganda sug'orish me'yorini ortib ketmasligiga erishish kerak, qanchalik suv kam miqdorda ko'ndalangiga olingan ariqlar bo'yicha taratilsa suv tuproqni yuvmaydi. SHuningdek ariqlarning qisqaligiga ham ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Eroziya jihatdan havfli bo'lgan to'lqinsimon yonbag'irlar ma'lum masofalarda daraxtli ihotazorlar bilan band bo'lsa tuproq yuvilishi ancha kamayadi. Eroziyaga uchragan tuproqlarning mahsuldorligini oshirish maqsadida mineral va organik o'g'itlardan oqilona foydalanish darkor, shuningdek kimyoviy preparatlarni ishlatilishi tuproq strukturasi yaxshilaydi, tuproqning yuvilishga berilishini kamaytiradi.

Jar eroziyasiga moyil bo'lgan juda qiya ( $8-10^\circ$  va undan katta) yonbag'irlarni haydashda ko'pgina omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq, avvalo barcha yerlarni haydamasdan, faqat ayrim areallar bo'yicha ekin maydonlarini tayyorlash kuchli eroziyani oldini oladi, mavjud daraxtli va butali o'simliklarni saqlab, yana qo'shimcha daraxtlar ekish zarur. Bu sharoitda lalmi yer yaylov bilan almashib kelgani ma'qul.

Deflyatsiyaning oldini olish tub asosi bilan ixotazorlarni vujudga keltirish, mavjudlarini saqlab qolishga bog'liq. Sug'oriladigan va lalmi yerlarda ma'lum masofalarda (200 m dan 350 m gacha va undan ko'p) ikki yoki to'rt qatorli daraxtzor mintaqalarini vujudga keltirish shamol kuchini ancha qisqaradi. O'simliklarni kulis usulida joylashtirishga ahamiyat berish kerak.

Sug'oriladigan yerlarning qashshoqlanishini to'xtatish va ularning mahsuldorligini oshirish uchun beda va dukkakli ekinlarni ma'lum reja asosida almashlab ekishga erishmoq lozim. Tuproqlarni bonitetlash, yer kadastrini ishlab chiqish va ularga rioya qilish mo'l hosil olishga asos bo'ladi.

Erni iqtisodiy baholash deganda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatidagi nisbiy bahosi tushuniladi yoki boshqacha aytganda, turli sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yerlarning nisbiy daromad miqdori anglanadi. Yerni iqtisodiy baholashning bosh mohiyati uni sifatining qishloq xo'jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat unumdorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Odatda, yerning tabiiy, sun'iy va samarali hosildorlik xususiyatlari ajratiladi. Yerning tabiiy hosildorligi tuproqning hosil bo'lish jarayonlari bilan bog'liq. Sun'iy hosildorlik inson tomonidan unga turli ishlov berish (haydash, o'g'it solish, melioratsiya, agrotexnik va boshqa tadbirlar) jarayonida vujudga keladi. Samarali yoki iqtisodiy hosildorlik tabiiy va sun'iy hosildorliklarning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'ladi. Aslida, bu ikki guruhdagi hosildorlik yaqindan bog'liq bo'lib, birbirlarini taqozo etadi. Sun'iy hosildorlikning bo'zilishi tuproq degradatsiyasiga olib keladi. Yerning hosildorligi qotib qolgan hodisa emas, u o'zgarib turadi: tabiiy va inson omillari ta'sirida yuqori bo'lishi yoki aksincha pasayishi mumkin. SHuning uchun ham yerning iqtisodiy bahosini butun bir umrga yetarli qilib aniqlanmaydi, uni ma'lum vaqtlarda qaytadan aniqlab turish lozim. Yerni iqtisodiy baholashda uning faqat hosildorligigagina emas, shuningdek, joylashgan o'rni, chunonchi, shaharlarga yaqinligi, sanoat markazlaridan o'zoqligi, transport qatnovi yo'lga qo'yilganligi ham hisobga olinadi.

Erni iqtisodiy baholash jarayoniga rel'efning o'ydim-chuqurligi, gorizontalar parchalanganligi, qiyaligi, tuproqning qalinligi, toshloqligi, mexanik tarkibi, tuproq turi va kichik turi, grunt suvlari sathining joylashuvi, tuproq tarkibida birlamchi to'z va gipsning mavjudligi, shamol va boshqa hodisalar faol ta'sir etadi. Bu omillarni tahlil qilish bilan tuproq ball tizimida baholanadi, so'nggida yer kadastrini ishlab chiqiladi.

Erni iqtisodiy baholash maqsadida uni materiallar bilan taʼminlash uchun, shuningdek, qishloq xoʻjaligini rejalashtirish va tashkil qilish niyatida hamda yer balansini, yerni baholashning hududiy birliklarini hisobga olish uchun barcha yerlarni toifalarga boʻlish maqsadga muvofiq: xoʻjalik ichidagi va umumiy yer (baholash birliklari). Bu birliklar xoʻjalikning ichida qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishini rejalashtirish va tashkil qilish talablariga mos kelishi lozim. Bu toifadagi yerlar oʻz navbatida yana ikki guruhga ajratilishi mumkin: Birinchi guruhdagi yerlarga xoʻjalikning yerdan foydalanish toʻzilmasiga muvofiq xoʻjalik uchun umuman ajratilgan yerlar, fermerlar, dexqon va boshqalarga foydalanish uchun berilgan yerlar kiradi; ikkinchi guruhga xoʻjalik jihatidan foydalaniladigan (ekinzorlar) yer massivlari, chunonchi, paxta, sholi, bugʻdoy, yem-xashak, poliz, bogʻ, oʻrmon va boshqalar ekiladigan yerlar, oʻt-almashlab ekish uchastkalari, ayrim dalalar, partov, ishdan chiqqan maydonlar, yaylov, pichanzor va boshqalar kiradi. Jamoa xoʻjaligi hududida barcha ekinzorlarni shu tartibda oʻzaro bogʻliq holda solishtirish yoʻli bilan yerning nisbiy bahosini aniqlash mumkin.

SHuni nazarda tutish kerakki, ekinzorlar joylashishida avvalo ularni maʼlum relʼef elementlariga (qavariq, botiq, yonbagʻir, tekislik, qiya va toʻlqinsimon tekisliklar) qarab joylashuvi, tuproq turlari, grunt suvlari rejimi, iqlimiy xususiyatlar, yaylov turi va boshqalarning aniq hisobga olinishi baholashning asoslanganligiga jiddiy taʼsir etadi. Bunda suv manbalari va ularning sifati alohida eʼtiborda boʻladi.

Tuproqning sifati yoki mahsuldorligi uning turi, fizik-kimyoviy xususiyatlari, mexanik tarkibi, gumus qatlamining qalinligi va miqdori, grunt suvlari sathining joylashuvi va boshqa omillarga bogʻliqligini hech kim inkor etmaydi. Tuproq qanchalik qulay tabiiy xususiyatlarga ega boʻlsa, shunchalik katta hosildorlikka ega boʻladi. Lekin bu koʻrsatkichlar tuproqning iqtisodiy mahsuldorligi mezonlari boʻlib xizmat qila olmaydi. Tuproqni iqtisodiy jihatdan baholaganda undagi ekinlarning hosildorligi va maydon birligi (gek.) dan olingan daromad eng yaxshi va ishonchli mezonlar hisoblanadi.

Hosildorlik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining so'ngi natijasi, shuning uchun ham yerning bahosini qayd qiladi. Ekinlardan olingan hosil miqdoriga qarab, dalalarning bahosini aniqlash mumkin, tuproqning mahsuldorligi qiymati ravshan bo'ladi. Tuproq mahsuldorligi barcha tabiiy va sun'iy meliorativ ahvolni to'liq mujassamlashtiradi. Yerni iqtisodiy baholash ikki ko'rsatkichda amalga oshiriladi; yalpi mahsulot bo'yicha amalga oshirish yerning ishlab chiqarish vositasi sifatida maydon birligi bo'yicha qiymatini bilishga imkon beradi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish hajmini maydon birligida tabaqalashgan holda rejalashtirish uchun, ekin maydonidan oqilona foydalanish, soliq tizimini to'g'ri amalga oshirish va boshqalarni aniqlashda zarur. Sof daromad bo'yicha yerni iqtisodiy baholash maydon birligidan olinadigan daromadni chamalashda qo'l keladi, bu hol tabaqalashgan soliq, rentalarni aniqlashda zarur omil hisoblanadi.

Hosildorlik va sof daromad xo'jalik hududida oldindan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmi va undan keladigan sof daromadni rejalashtirishda eng ishonchli mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Kadastr (fran so'zcha-reestr, ro'yxat) - ob'ekt yoki hodisa to'g'risida jamlama sifatida va miqdoriy ma'lumotlarning tizimli majmuasi hisoblanadi, ko'p hollarda ular iqtisodiy baholashni nazarda tutadi. Kadastrning turlari ko'p. yer kadastri quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: a) yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ro'yxatdan o'tkazish; b) yerni miqdoriy hisobi; v) yerning sifati; g) tuproq bonitirovkasi; d) yerlarni iqtisodiy baholash.

Tuproq bonitirovkasi (lotin tilida - asl, sifatli) - tuproqning unumdorligi bo'yicha nisbiy baholashdan iborat. Qiyosiy baholash tuproqlarni majud ob'ektiv xususiyatlari va belgilari asosida amalga oshirish, bular qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishida eng muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bonitirovkada miqdoriy ko'rsatkichlar (ballar) qo'llaniladi. Ular bir tuproqni ikkinchi tuproqdan qanchalik yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bunda tuproqning eng muhim xususiyatlari va hosildorligi e'tiborga olinadi. Boshqacha aytganda, tuproq bonitirovkasi-bu, tuproqning hosildorligini ball hisobida agronomik inventarizatsiya qilish bo'lib, ball tuproqning asosiy xususiyatlari va eng muhim

qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha hosildorligi hamda tabiiy yaylov (pichanzor) larning mahsuldorligi hisoblangan ko'rsatkichidir.

Tuproq bonitirovkasi yer kadastrining asosiy qismlaridan biri bo'lib, yer resurslarini miqdor va sifat jihatdan hisobga olish hisoblanadi. Miqdoriy hisobga olishning mohiyati yerdan foydalanish va ekinlarning turi bo'yicha maydoni hisobida taqsimlanishni ko'rsatadi. Haydaladigan, sug'oriladigan yerlar, bog'lar, pichanzor, yaylovlar va boshqalarning maydoni hisobga olinadi. Sifat jihatidan inventarizatsiya qilishda tuproqning asosiy xususiyatlari, ayniqsa, unumdorligi hamda mehnat mahsuli-ekinlarning hosildorligi (ko'rsatkichi) hisobga olinadi. Bunda har bir yer uchastkasining haqiqiy va potentsial (imkoniy) mahsuldorligi, shunidek, butun jamoa xo'jaligi, tuman va viloyat bo'yicha ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bunday tartibda yer uchastkalarini hisobga olish qishloq xo'jalik yerlarini (ekinzorlarini), haydaladigan yerlar, pichanzor, yaylov, o'rmon va boshqalarning mahsuldorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda zarur bo'ladi. U xo'jaliklarning to'g'ri ixtisoslashuvi va tarmoqlarning oqilona almashib kelishi, yerlarni melioratsiya qilishda kapital mablag' sarflashni rejalashtirishda asos bo'ladi. SHu bilan birga tuproq bonitirovkasi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, ma'lum hududlarni (fermer xo'jaligi, tuman, viloyat) tuproqlarining unumdorligi bo'yicha guruhlariga birlashtirish va solishtirish uchun imkon beradi, fermer xo'jaliklari va ishlab chiqarish faoliyatiga hududning iqlimiy va iqtisodiy sharoitlarini e'tiborga olib ob'ektiv baho berish, tuproqlardan oqilona foydalanish asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, bu boradagi imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Bonitirovkada paxta, don, sholi, yem-xashak, qand lavlagi yetishtirish, tabiiy o't va o'rmonlar, bog'lar tashkil qilish uchun eng qulay sharoitlarni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi. U qishloq xo'jalik mutaxassislariga sug'orma, lalmi yerlardan, yaylovlardan jadal foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishda yordam beradi. Bonitirovka asosida tuproq sifatiga mos keladigan hosildorlikni oldindan belgilash, tuproqqa solinadigan mineral va organik o'g'itlar miqdorini aniqlash mumkin. Bonitirovka tuproqning qanday chora-tadbirlarga muhtojligi, eroziya va

deflyatsiya, qurutish melioratsiyasi, fitomelioratsiya tadbirlarini amalga oshirish zarurligini hudud bo'yicha hamda ayrim areallarda muntazam keng miqyosda qo'llashni asoslaydi.

Bonitirovka usullari va bonitirovka shkalasi baholash mezonlari bo'yicha farqlanadi. Bunda tuproqning ayrim tabiiy xususiyatlari yoki ushbu xususiyatlaridan jami baholashda foydalaniladi. Lekin baholash jarayonida tuproqning qishloq xo'jalik ekinlari rivojlanadigan sharoitlarini belgilovchi xususiyatlari va belgilari asos qilib olinadi. SHuning uchun ham ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan tuproq bir turdagi ekin uchun qulay, boshqa turdagi ekinlar uchun esa noqulay bo'lishi mumkin.

Tuproqlarni xususiyatlari bo'yicha baholash mantiqan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini nazorat qiladi. Tuproqlarni baholashda ularga jiddiy ta'sir etuvchi omillar, ya'ni relief, grunt suvlari sathi va mineralashuv darajasi, iqlim xususiyatlari, gruntning suv o'tkazuvchanligi, yotqiziqlarning litologik tarkibi, yerning o'lchamlari va boshqalarga katta ahamiyat beriladi.

MDH mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda 100 ballik baholovchi shkala qabul qilingan. Ballarni ishlab chiqish yer to'zish davlat loyiha instituti («O'zgiprozem») oliy o'quv yurtlarining tuproqshunoslik kafedralari, Tuproqshunoslik va agrokimyo institutida mahalliy tabiiy va iqlimiy sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Bonitirovka ballarini har bir baholash belgisi bo'yicha hisob-kitob qilish qabul qilingan quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:  $B = \frac{3\phi \times 100}{3_m}$ , Bunda: B- tuproq balli;  $Z_f$ -biror belgi (gumus miqdori, azot, fosfor, kaliy va b.);  $Z_m$ -shu belgining qiymati, u 100 ball hisobida olinadi.

Balli baholash tuproqlarning andozali ko'rsatkichlari asosida bajarilishi lozim, o'shanda tuproqdagi gumus miqdori 100% ga teng bo'ladi. Masalan, sug'oriladigan och bo'z tuproqda gumus miqdori, aytaylik, 1,3% bo'lsa, u andozali tuproqda 2,3% teng deb hisoblash bilan yuqoridagi formula asosida quyidagi

miqdorga ega bo'lamiz:  $1,3 \times 100 : 2,3 = 57$ . Bu misoldagi sug'orma och bo'z tuproq 1 ga maydonda 57 ballga teng.

Mutaxassislar tuproq bonitirovkasi ballarini tasniflash natijasida quyidagi shkalani taklif qilishgan.

Jadvaldan ma'lumki yaxshi, hosildor tuproqlar 71-100 ball, o'rtachasi -41-70 ball, yomoni – 11-40 ball bilan tavsiflanadi.

Yuqorida misol sifatida ko'rsatilgan 57 ballga ega bo'lgan sug'orma och bo'z tuproq o'rtacha darajadagi sifatga ega. Unumdorligi turlicha bo'lgan yerlarda yetishtirila oladigan paxta va boshqa qishloq ho'jalik ekinlarining o'rtacha ta'miniy hosildorligi qanday bo'lishini aniqlash uchun muayyan tuproq boniteti ballining bahosiga ko'paytirish kerak. Eng yaxshi (100) yerlarda qishloq ho'jalik ekinlarining hosildorligi turlicha baholanadi.

Yuqorida keltirilgan ball (57) ni paxta nuqtai nazardan qaralsa, u holda paxtaning o'rtacha hosildorligi jadval bo'yicha gektariga 22,8 tsentner. gektar. teng bo'ladi:  $57 \times 0,4 = 22,8$  tsentner.

Ishlab chiqarishda jamoa ho'jaligi yoki tumanning o'rtacha ballik bahosini bilishga to'g'ri keladi, chunki hududda tuproqning kichik turi bir necha xil bo'lishi mumkin. Tabaqalashgan ma'lumotlarga ega bo'lish natijasida ko'p miqdoriy ko'rsatkichlar (ballar) bilan muomala qilishga to'g'ri keladi. Bu holda quyidagi formula asosida o'rtacha ballga ega bo'linadi:

$$B_o = \frac{B_1M_1 + B_2M_2 + \dots + B_nM_n}{M_1 + M_2 + \dots + M_n}$$

Bunda:  $B_o$  - o'rtacha ball;  $B_1, B_2 \dots B_p$  - yer

### 3-jadval.

#### Tuproq boniteti klasslarining shkalasi.

Bonitet klassi	Bonitet balli	Tuproqning sifatiy tavsifi
10	91-100	Yaxshi
9	81-90	
8	71-80	
7	61-70	O'rtacha
6	51-60	
5	41-50	
4	31-40	Yomon
3	21-30	
2	11-20	

1	1-10	Dehqonchilikda foydalanilmaydi
---	------	--------------------------------

**Manba. Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi**

massivga kiruvchi tuproq boniteti;  $M_1, M_2...M_p$  – tuproqlarning maydonlari. Hudud bo'yicha olingan o'rtacha ball qishloq ho'jalik ishlab chiqarishining hohlagan uchastkalarini solishtirish va baholash imkoniga ega. O'zbekiston Respublikasi viloyatlari uchun quyidagi tuproq bonitet ballari (sug'oriladigan yerlar) aniqlangan. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi – 40-63, Horazm – 60-70, Jizzah - 53-58, Buhoro – 58, Samarqand – 67, Navoiy –58, Sirdaryo – 53, Toshkent – 66, Andijon – 65, Namangan – 66, Farg'ona- 66, Qashqadaryo- 54, Surhondaryo – 68. Ushbu ballar o'rtacha bo'lib, viloyatlar bo'yicha ularning tebranishi katta.

#### 4-jadval.

**100 balli yerlarda qishloq ho'jaligi ekinlari hosildorligini baholash.**

Ekin turlari	100 balli eng yaxshi yerda yetishtirilgan hosil, ga-ts	1 ballning bahosi, ga-ts
Paxta	40	0,40
Beda, birinchi yil, sof holda (pichan uchun ekilganda)	100	1,00
Qoplama ekin tariqasida ekilganda	75	0,75
Don uchun ekilgan makkajo'huri	75	0,75
Ikkinchi va uchinchi yilgi beda, pichan	200	2,00
Boshqa don ekinlari:		
sof holda ekilganda	60	0,60
qoplama ekin tariqasida ekilganda	25	0,25
Silos uchun ekilgan makkajo'huri	650	6,50
Ozuqabop ildizmevali ekinlar	950	9,50
Bir yillik o'tlar (ko'k massa)	300	3,00
Oraliq ekinlar (ko'k massa)	260	2,50

**Manba. Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi**

Erlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtirish – bu, o'ziga hos tasniflanish bo'lib, bunda genetik jihatdan bir xil va agronomik hususiyatlari bo'yicha bir-birlariga yaqin bo'lgan tuproqlar o'zaro birlashtirilib, ular asosida ho'jalik jihatidan bir xil bo'lgan massiv aniqlanadi. Yerlarni agronomik ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlashtirish u yoki bu ekinlar almashlab

ekish rotatsiyasida ho'jalik mutaxassislarini agrotehnik, meliorativ tadbirlarni amalga oshirish, o'g'itlarni qo'llash, sug'orishni tashkil qilish, me'yorlarni belgilash va boshqa ishlarni bajarishda tabaqalashgan holdagi boshqaruvni qo'llashga yo'naltiriladi. Bu yer va suvdan to'g'ri foydalanish tizimini amalga oshirishga imkon beradi. Binobarin, yerlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtirish ikki maqsadni ko'zlaydi: a) bir tomondan butun tuman, viloyat hududida tuproq konturlarini yiriklashtirish, bu ayniqsa, aniq tadbirlarni qo'llashga keng imkoniyatlar yaratadi; b) tuproq turlari va ayrim ishlab chiqarish guruhlarini solishtirish mumkin bo'ladi. Bu vaziyatda sifat bo'yicha 4-5 tuproq toifasi va ularning agronomik ishlab chiqarish guruhlarini (eng yaxshi, yaxshi, o'rta, o'rtadan past va yomon) ajratish tavsiya etiladi. Bu hol dehqonchilik ekinlarini qishloq ho'jalik nuqtai - nazardan rayonlashtirishga imkon beradi. Yerlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlarini bo'yicha toifalashni sifat jihatidan baholash, deb qarash lozim. Sifat jihatidan baholash negizida tuproqlarni bonitirovka qilish amalga oshiriladi. Tuproqlarni guruhlashtirish bonitirovka va yer kadastri tizimida amalga oshirilishi asosan tuman, viloyat, respublika miqyosida tuproqlarni baholash maqsad qilib qo'yilgan taqdirda bajariladi.

Arid iqlim sharoitida yerlarni bonitirovka qilishda tuproqning granulometrik tarkibi, gruntning suv o'tkazuvchanlik hususiyati, tuproqning sho'rliigi va madaniylashganlik darajasi, grunt suvlari rejimi hisobga olinadi va bonitirovka jarayonida har biriga ma'lum koefitsient ishlab chiqiladi va ulardan hisoblashda foydalaniladi.

## **1.2. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish**

Er barcha ishlab chiqarilayotgan boyliklarning manbasi ekanligi iqtisodchi olimlar tomonidan ko'p martalab ehtirol etilgan. Sanoat ishlab chiqarishining ayrim turlari uchun yer imoratlar turadigan oddiy baza hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida esa yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Ya'ni kishilar yerga ishlov berish yo'li bilan ishlab chiqarishga ta'sir etadi. Yer bir paytda mehnat predmeti (mehnat yo'naltiriladigan ob'ekt sifatida) va mehnat quroli (erda

zarur biologik sharoitlarni tug'dirish natijasida o'simliklar rivojlanadi) sifatida qishloq xo'jaligida yuzaga chiqadi. Yer har bir xalqning asosiy boyligidir.

O'zbekiston Respublikasi jami bo'lib 447,4 mln. gektar yer maydoniga ega. Respublika qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydonlarining 81 foizi yoki 26,6 mln. gektari yaylov va pichanzorlarni tashkil etadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 16 foizi haydaladigan yerlarni tashkil etadi. Mamlakatning lalmikor yerlari 6,6 mln. gektarni tashkil etadi.

Respublika yerlarining bir qismi shaharlar va aholi punktlari, bir qismi transport va kommunikatsiyalari, daryo va suv havzalari bilan band yerlar, o'rmon xo'jaligi yerlari, harbiy maqsadlar uchun ajratilgan yerlar va davlat zahira fondidan iborat. Biz uchun eng muhimi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hisoblanadi. Respublikaning yer manbalari cheklangan va u qishloq xo'jaligi tarmog'ida foydalanadigan resurs sifatida kamayib bormoqda.

Qishloq xo'jaligida yer resurslari asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1).Er tabiatda chegaralangan. Uni insoniyat xohlaguncha ko'paytirish imkoniga ega emas. Demak, yagona to'g'ri yo'l mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishdir. Bundan tashqari sanoatning, kommunikatsiyaning o'sishi, aholining ko'payishi tabiiy holda bir kishiga to'g'ri keladigan yer maydonini qisqarishiga olib keladi. Qolaversa insoniyatning yerdan to'g'ri foydalanmasligi sababli ularning qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketish hollari ham yuz bermoqda. Tuproq eroziyasi, sho'r bosish, kasalliklarga chalinish kabi taraqqiyotning salbiy oqibiyatlarini kamaytirish har bir davlatning, yerdan foydalanuvchilarning birinchi galdagi vazifasidir.

2). Yer - tabiat mahsuli. Bu ham bizning oldimizga qator vazifalarni qo'yadi.

3). Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir.

4).Turli joylarda mavjud yer maydonlari turli sifatga, ya'ni unumdorlikka ega. Yerning tabiiy va sun'iy unumdorligi bir - biridan farqlanadi. Tabiiy unumdorlik bu inson aralashuvisiz tabiat tomonidan vujudga kelgan yerning hosil bera olish

qobiliyatidir. Inson aralashuvi natijasida vujudga kelgan unumdorlik sunʼiy unumdorlikdir. Bu unumdorlikni oshirish imkoniyatlari katta.

5) Yerni bir joydan ikkinchi joyga koʻchirish mumkin emas. Bularning barchasi mavjud Yerlarda qaysi ekin turlarini joylashtirish, texnikaning qanday turlaridan foydalanish va ishlab chiqarishning hajmi qanday boʻlishi maqsadga muvofiqligi toʻgʻrisida inkor etib boʻlmaydigan talablarni keltirib chiqaradi.

Qishloq xoʻjaligida yer resurslari asosiy ishlab chiqarish vositasi ekan, undan qanday foydalanayotganimizni bilishimiz zarur. Iqtisodiy fan Yerdan foydalanishni ifodalovchi koʻrsatkichlarni ikkiga boʻlib oʻrganadi. Birinchi guruhga yerdan foydalanishning darajasini ifodalovchi koʻrsatkichlar kiradi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Erlarning (strukturasi) tarkibi. Jami yer maydonida qishloq xoʻjaligi yerlarining salmogʻi. Bu koʻrsatkich mavjud yerlarning qancha qismi qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga yaroqli ekanligini koʻrsatadi;
- Qishloq xoʻjaligi yerlarining tarkibi. Bu koʻrsatkich qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlarning tarkibini koʻrsatadi. Qishloq xoʻjaligi yerlarning tarkibida haydaladigan, ayniqsa, sugʻoriladigan yerlar salmogʻiga qarab biz kerakli xulosalar chiqaramiz;

Agarda qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlar tarkibida sugʻoriladigan yerlar salmogʻining yuqori boʻlishi taʼminlansa yaxshi. Chunki sugʻoriladigan yerlarning qimmatliligi lalimikor yerlardagiga qaraganda juda katta.

2008-yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sugʻoriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yer osti suvlari yuqori boʻlgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va oʻrtacha shoʻrlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.<sup>4</sup>

---

<sup>4</sup> 2014-yil yuqori oʻsish surʼatlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, oʻzini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili boʻladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi”Xalq soʻzi” gazetasi 2014 yil 18 yanvar №13 (5953

Erda foydalanishning iqtisodiy samaradorligi har bir gektar yerdan olinadigan yalpi mahsulot, foyda bilan aniqlanadi. Ekinlarning hosildorligi ham yerdan samarali foydalanayotganimizning darajasini ifodalaydi.

Albatta, yer bilan ajralmas holda suv resurslaridan foydalanishni ham o'rganish lozim. Ayniqsa bizning mamlakatimiz uchun suv resurslarining ahamiyati katta. SHu sababli 1 metr kub suv hisobiga olingan mahsulot miqdori undan foydalanishning samarasini bildiradi. Bu ko'rsatgichlarni natura va qiymat holida hisoblash mumkin.

Erda samarali, oqilona foydalanish kelajak talab qilayotgan zaruratdir. Yer resurslaridan foydalanish darajasi va samarasini oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Eng avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yer resurslarining talabi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda joylashtirish lozim. Albatta, mamlakat oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalangan holda bozor talab qiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va bunda aholining ehtiyojini unitmaslik talab qilinadi. SHunga qaramasdan yer resurslarining holatini hisobga olmasdan ishlab chiqarishni tashkil etish ma'lum salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, kuchli sho'r bosgan yerlarda ko'zgi don ishlab chiqarishni joylashtirish samaradorlikni pasaytiradi. Ayrim hollarda yerning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga mutlaqo yaroqsiz holga kelishiga sabab bo'ladi. CHunki bunday yerlarda ko'zgi va qishgi sho'r yuvish ishlarini olib borish mumkin emas. Xozirda jami sug'oriladigan yerlarning 47,8 foizi sho'rlanmagan, 30,8 foizi kam sho'rlangan, 17,2 foizi o'rtacha sho'rlangan va 4,2 foizi kuchli sho'rlangan yerlardir. O'zbekiston qishloq xo'jaligi yerlari meliorativ holatiga ko'ra 38 foizi yaxshi, 53,4 foizi qoniqarli va 8,6 foizi qoniqarsiz, meliorativ holati yomon yerlardir. Bu holatni yomonlashib ketishini oldini olish kerak.

Erlarning bir sifat holatidan ikkinchi holatga o'tishi umumiy holda yer transformatsiyasi deyiladi. Yer transformatsiyasi ijobiy (yomon yerlarning yaxshi yerlar safiga o'tishi) va salbiy (yaxshi yerlarning yomon yerlar safiga o'tishi) bo'ladi. Imkon boricha salbiy yer transformatsiyasiga yo'l qo'ymaslik lozim. Yer

islohotlarini to'g'ri o'tkazish ham yer dan foydalanishning samaradorligini oshiradi. Yer duch kelgan kishiga emas balki yerda ishlash tajribasi, bilimi bor kishilarga, xo'jaliklarga berilishi kerak. SHu borada yerdan olingan mahsulotga egalik qilish sharoitlarini to'g'ri hal etish talab qilinadi. Aks holda yerdan samarali foydalanib bo'lmaydi.

Eng zarur omillardan biri yerdan foydalanuvchilarning samaradorlikni oshirganliklari uchun manfaatdorligini ta'minlashdir.

Tanlangan ishlab chiqarish turini texnologiyani bo'zmasdan bajarish, melioratsiya va irrigatsiya tadbirlarini o'z vaqtida samarali o'tkazish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, yerdan foydalanish samaradorligini oshiradigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Erda foydalanish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ilg'or texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq.

Ekologik muhit talablarini hisobga olgan holda kimyolashtirishni rivojlantirish ham yer resurslarining samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni suv va shamol erroziyasidan asrash ham juda muhim tadbirlardan biridir. Masalan, ekin maydonlarining 2,1 mln. gektari shamol, 0,7 mln gektari suv erroziyasiga uchragan. Jami 22,1 mln. gektar yaylovning 6 mln. gektari shamol va 3 mln. gektari suv erroziyasiga uchragan. Bu holat ko'payib borish tendentsiyasiga ega. Natijada, agrosanoat majmuasi iqtisodiyotiga sezilarli salbiy ta'sir qiladi. SHu sababli yerlarni asrash asosiy vazifalardan biridir.

Qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. U ishlab chiqarish vositasi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan ishlab chiqarishni yuritish katta salbiy oqibatlariga olib keladi. yerlarning bir sifat ko'rinishidan ikkinchisiga o'tishi yer transformatsiyasi deb ataladi. Yer transformatsichsi ijobiy va salbiy bo'ladi. Imkon darajasida salbiy yer transformatsiyasigi yo'l qo'ymaslik kerak. Xozirda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi yerlarning bir qismi sho'rlangan, yana

bir qismi shamol va suv erroziyasiga uchragan. Yomon tomoni shundagi bu holatlar keyingi yillarda ko'payish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda.

Erдан foydalanishning ko'rsatkichlari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga undan foydalanishning darajasini ko'rsatadigan ko'rsatkichlar kiradi. Ikkinchi guruhga esa yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar kiradi. Yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar natural va qiymat ko'rinishda hisoblanadi.

Erдан foydalanishning darajasiga va samaradorligiga ko'pgina omillar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Ularning eng asosiylariga yerlaning tarkibini yaxshilashdir. Sug'oriladigan yerlarning salmog'ini oshirish, yerdan foydalanishning martaliligini ko'paytirish, ilg'or agrotexnologiyalarni qo'llash, tejamkorlik, yangi serunum texnikalardan foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sermahsul ekin navlarini ishlab chiqarishga joriy etish kabi omillardan to'g'ri foydalanish yerdan foydalanishning samaradorligini oshiradi.

### **1.3. Yer resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslari**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda yer asosiy vosita rolini uynaydi. SHu sababdan qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatlarini tasavvur etib bulmaydi. Yer resurslaridan, xususan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish qishloq xo'jalik ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun muxim ahamiyatga ega.

Xozirda harakatda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan mamlakatimizda Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish bilan fermer xo'jaliklari, dexqon xo'jaliklari shug'ullanadilar. Ularning yerdan foydalanish xuquqi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, yer Kodeksi, «Qishloq xo'jalik kooperativlari to'g'risida»gi qonun, «Ijara to'g'risida»gi qonun, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonun, «Dexqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonun, «Er solig'i to'g'risida»gi qonunlari bilan tartibga solinadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish xuquqi Qishloq xo'jaligi xuquqining mustaqil va markaziy institutlaridan biri xisoblanadi. Qishloq

xo'jalik qonunchiligi korxonalari Yerdan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi bir kator xuquqiy normalarni o'zida jamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi bilan «Qishloq xo'jalik kooperativlari to'g'risida»gi qonunga ko'ra qishloq xo'jaligi kooperativlariga berib qo'yilgan yer uchastkalari xususiylashtirish va oldi-sotdi, garov, xadya, ayirboshlash ob'ektlari bo'lishi mumkin emas.

Qishloq xo'jalik korxonalari ichida fermer xo'jaliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Fermer xo'jaliklari faoliyatida ham Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish muxim urinni egallaydi. Fermer xo'jaliklariga Yer uchastkalari ijara asosida beriladi yer uchastkasini ijaraga berish muddati «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunga ko'ra 10 yildan kam bo'lmasligi, 50 yildan oshib ketmasligi kerak. Yer uchastkasini o'zok muddatli ijaraga olish shartnomasi qishloq xo'jaligi boshqaruvi va fermer xo'jaligi boshligi tomonidan imzolanadi.

Fermer xo'jaliklariga zaxiradagi yerlar, maxsus respublika fondi yerlari, mehnat resurslari yetarli bo'lmagan xo'jaliklardagi va sug'oriladigan yerlar beriladi. Ularga zarar ko'rib ishlayotgan yoki rentabelli qishloq xo'jaligi korxonalarining yerlari ham berilishi mumkin. Qishloq xo'jalik kooperativlarining yerlari fermer xo'jaliklari kooperativ a'zolari umumiy majlisi qaroriga binoan beriladi va bu qaror asosida tuman xokimi tegishli qaror qabul qiladi.

Fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasining o'lchami Yer uchastkasini beradigan organ tomonidan har bir muayyan xolatda maxalliy sharoitlarni, shuningdek fermer xo'jaligida ishlovchilar sonini xisobga olgan xolda belgilanadi. SHu bilan birgalikda fermer xo'jaliklariga yer berish miqdorlari qonunda belgilangan. Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunning 5-moddasiga ko'ra, fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam ulchami bir shartli bosh Chorva molga xisoblanganda Andijon, Samarkand, Toshkent, Fargona va Xorazm viloyatlaridan sug'oriladigan Yerlarda kamida 0,3 gektar, Korakalpogiston Respublikasi va boshqa viloyatlardagi sug'oriladigan Yerlarda kamida 0,45 gektar, sug'orilmaydigan Yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etishi kerak. Fermer xo'jaliklariga berilgan yer uchastkalari davlat mulki xisoblanadi, shu

sababdan u xususiylashtirilishi, oldi-sotdi, xadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi mumkin emas. SHuningdek, fermer xo'jaliklariga ijaraga berilgan uchastkalari ikkilamchi ijaraga ham berilishi mumkin emas.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimida qishloq xo'jalik korxonasi sifatida yuridik shaxs xuquqiga ega bo'lgan dexqon xo'jaliklari muxim urinni egallaydi. Yuridik shaxs xuquqiga ega bo'lgan dexqon xo'jaligini qishloq xo'jalik korxonasi sifatida tan olinishining sababi uning qonunda ko'rsatilgan mayda tovar xo'jaligi ekanligi, Qishloq xo'jaligi maxsuloti yetishtirish va realizatsiya qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi kabi belgilari bilan xarakterlanadi (O'zbekiston Respublikasi «Dexqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni 1-moddasi).

Dexqon xo'jaliklarining yerdan foydalanish xuquqi O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksi (55-modda) hamda «Dexqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 2-bobi bilan tartibga solinadi. Ushbu xuquqiy koidalarga binoan qishloq xo'jalik kooperativi har bir a'zosining, boshqa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlari har bir xodimining oilasiga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning oilalariga dexqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va xovli egallagan maydonni ham qo'shganda sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan yerlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va saxro mintaqada esa sug'orilmaydigan yerlarda 1 gektargacha ulchamda beriladi.

Dexqon xo'jaligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkalarining ulchamlari yer resurslarining mavjudligiga karab hamda oilaning jamoat ishlab chiqarishdagi ishtirokini xisobga olgan xolda qishloq xo'jaligi kooperativlarida, boshqa jamoa qishloq xo'jaligi korxonalarida ularning yuqori boshqaruv organlari tomonidan, boshqa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari, tashkilotlarida ularning ish beruvchisi (mahmuriyati) qarori bilan belgilanadi, mazkur qaror asosida tuman xokimi tegishli qaror qabul qiladi.

Fuqarolarga dexqon xo'jaligi kiritish uchun 0,06 gektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish xuquqi

kimoshdi savdosi asosida sotilishi mumkinligi qonunda ko'rsatilgan (Er Kodeksining 55-moddasi, «Dexqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 8-moddasi).

«Dexqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 8-moddasiga ko'ra, tashkil etilayotgan dexqon xo'jaligi uchun tomorqa yer uchastkasi olish xuquqidan mazkur joyda kamida uch yil mobaynida doimiy yashab kelayotgan shaxslar foydalanadilar.

Tomorqa yer uchastkasidan oqilona va samarali foydalanayotgan xo'jaliklariga qishloq xo'jalik kooperativi boshqaruvi tomonidan umumiy majlisining qarori asosida qishloq xo'jalik maxsuloti yetishtirish va realizatsiya qilish, ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek yaylov yaratish uchun qisqa muddatli ijaraga kushimcha ravishda Yer uchastkalari beriladi.

Dexqon xo'jaligi boshligi vafot etgan takdirda tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish xuquqi shu xo'jalik a'zolarining o'zaro kelishuvi asosida xo'jalik a'zolaridan biriga meros buyicha utadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini yerdan foydalanish xuquqining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, Qishloq xo'jalik korxonalarini o'zlariga berilgan yer maydonlaridan asosan Qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish uchun foydalanadilar; ikkinchidan, Yer Qishloq xo'jalik korxonalarini uchun asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lganligi uchun undan oqilona foydalanishlari, uni xosildorligini doimo oshirib borishlari lozim; uchinchidan, Qishloq xo'jalik korxonalarini foydalanishida bo'lgan Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar oltin fondimizni tashkil etganligi uchun xususiylashtirilishi, oldi-sotdi qilinishi, garov, xadya, ayirboshlash ob'ektlari bo'lishi mumkin emas; turtinchidan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar davlat mulki xisoblanib, qishloq xo'jalik korxonalarini uni egallash va undan foydalanish xuquqlariga ega bo'ladilar.

Yuqorida bildirilgan fikr va muloxazalardan kelib chiqib, Qishloq xo'jalik korxonalarining Yerdan foydalanish xuquqit deganda, ularga foydalanish uchun berib qo'yilgan yer uchastkalariga egalik qilish, undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xuquqiy normalar yig'indisi

tushuniladi. Bu xuquqiy normalar qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish xuquqining vujudga kelish tartibi va asoslari, ularning yerdan foydalanishdagi xuquq va majburiyatlari, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni muxofaza qilish, yer qonunchiligini bo'zganlik uchun javobgarlik kabi munosabatlarni tartibga soladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini yerdan foydalanish xuquqi sub'ektlari deganda qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanuvchi ishlab chiqarish to'zimalari tushuniladi. Bu sub'ektlar doirasi O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ko'rsatilgan. SHu kodeksning 47-moddasiga ko'ra, qishloq xo'jaligi kooperativlari, qishloq xo'jalik maxsuloti yetishtirish va uni ayiriboshlovchi qishloq xo'jaligiga ixtisoslangan xo'jaliklararo korxonalar va tashkilotlar, fermer xo'jaliklari, dexqon xo'jaliklari, qishloq xo'jalik korxonalarini xisoblanadi. Ushbu korxonalar qishloq xo'jalik korxonalarini yerdan foydalanish xuquqining sub'ektlari bo'lishi uchun yuridik shaxs xuquqiga ega bo'lishlari kerak.

SHuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jalik korxonalarini yerdan foydalanish xuquqining sub'ektlari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish xuquqining sub'ektlari doirasini farqlash lozim. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish xuquqi sub'ektlari doirasi qishloq xo'jalik korxonalarini yerdan foydalanish xuquqi sub'ektlariga nisbatan ancha kengdir. CHunki, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish sub'ektlari qatoriga qishloq xo'jalik korxonalaridan tashqari sanoat korxonalarining yordamchi xo'jaliklari, fuqorolar, ilmiy muassasalarning, oliy o'quv yurtlarining tajriba o'quv uchastkalari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Harakatdagi yer qonunchiligiga binoan fermer xo'jaliklari ham qishloq xo'jalik korxonalarini yerdan foydalanish xuquqining mustaqil sub'ekti bo'ladilar. Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs xuquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir. Fermer xo'jaligi yer

uchastkalarini ijara asosida oladi. Bu faqat fermer xo'jaligi boshlig'i qishloq xo'jalik korxonalari yerdan foydalanish xuquqi sub'ekti bo'ladi degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Sub'ekt sifatida barcha fermer xo'jaligi a'zolari, butun fermer xo'jaligi tan olinadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari yerdan foydalanish xuquqi sub'ektlari sifatida yuqorida sanab ko'rsatilganlardan tashqari, yer kodeksida belgilanishicha, xo'jaliklararo korxonalar va tashkilotlar (52-modda), jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi bilan shug'ullanuvchi fuqorolar (56-modda), yordamchi Qishloq xo'jalik korxonalari (57-modda) bo'lishlari mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalari yerdan foydalanish xuquqi umumiy tavsifnomasi ushbu xuquq ob'ekti masalasiga ham alohida to'xtalib o'tishni zarurat qilib qo'yadi. Qishloq xo'jalik korxonalari yerdan foydalanish xuquqining ob'ekti deganda qishloq xo'jalik korxonalariga xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini yuritish uchun qo'yilgan yerlarning toifalarini, chegaralarini, tizimini belgilash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi xuquqiy qoidalar yig'indisi tushuniladi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi korxonalariga avvalo, Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar beriladi. Demak, qishloq xo'jalik korxonalari yerdan foydalanish xuquqi ob'ektini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar tashkil etadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar deb qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar aytiladi. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksida belgilanishicha, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, yopiq suv xavzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallangan yerlarga ajraladi (43-modda). SHuningdek xaydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, tashlandiq yerlar, ko'p yillik dov-daraxtlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar ham qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar ichida sug'oriladigan yerlar muhim o'rinni egallaydi. Sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni taxminlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini yerdan foydalanish xuquqi ob'ektlarini bir qancha jihatlariga qarab tavsiflash mumkin. Yer uchastkalaridan foydalanish maqsadiga qarab qishloq xo'jalik korxonalarini yerlari tovar qishloq xo'jaligi maxsuloti yetishtirishga mo'ljallangan hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga (uy-joylar, binolar, inshootlar, yo'llar.) bo'linadi. Suv bilan taxminlanganlik darajasiga qarab qishloq xo'jaligi korxonalarini yerlari sug'oriladigan yerlar hamda yerlari toifalariga bo'linadi. Yuqoridagilardan tashqari, qishloq xo'jalik korxonalarining yerlari xo'jalik yuritish shakliga qarab jamoa fondi yerlari va dexqon xo'jaligi yuritish uchun ajratilgan yerlar toifalariga bo'linadi.

Umumiy qoidaga ko'ra, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishga qaratilgan xuquq va majburiyatlarni tartibga soluvchi xuquqiy normalar yig'indisi yerdan foydalanish xuquqi mazmunini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, yerdan foydalanish xuquqining mazmuni yerdan foydalanuvchi sub'ektlarga tegishli bo'lgan xuquq va majburiyatlar yig'indisidir. SHundan kelib chiqib aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi korxonalarining yer bilan bog'liq munosabatlarga doir xuquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi xuquqiy normalar yig'indisi ularning yerdan foydalanish xuquqi mazmunini tashkil etadi. Ya'ni qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish xuquqi mazmuni ularga tegishli yerdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xuquq va majburiyatlar yig'indisidan iboratdir.

Ma'lumki, yer xuquqiy munosabatlar mazmuni uchta elementdan: yerni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish xuquqidan iborat bo'ladi. Demak, yer xuquqiy munosabatlar sub'ektlarining, jumladan qishloq xo'jalik korxonalarining xuquq va majburiyatlari mazmuni yerni egallash, undan

foydalanish va uni tasarruf qilish xuquqlari bilan xarakterlanadi, ya'ni qishloq xo'jalik kooperativlari yuqorida sanalgan xuquqlarga ega bo'lishlari mumkin.

Dastavval ta'kidlash o'rinliki, yer qonunchiligiga ko'ra, qishloq xo'jalik korxonalarini yerning egasi bo'lmaganligi sababli uni tasarruf qilish xuquqiga ega emaslar. Bu xuquq faqat yerning egasi bo'lgan davlatda saqlanib qoladi. Demak, qishloq xo'jalik korxonalariga xo'jalik faoliyati yuritish uchun yer berilganda unga nisbatan mulk xuquqi davlatda saqlanib qoladi va hech vaqt u ikkinchi tomonga o'tmaydi. SHunday ekan, qishloq xo'jalik korxonalarini yerning egasi xisoblanmaydilar va tasarruf qilish xuquqiga ham ega bo'lmaydilar.

SHundan kelib chiqqan xolda aytish mumkinki, qishloq xo'jalik korxonalarini faqat yerni egallash va undan foydalanish xuquqiga egadirlar. Sub'ektiv mulk xuquqining asosiy elementi bo'lgan tasarruf etish xuquqi esa mulk egasida, ya'ni davlatda saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining yer bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda yerga egalik xuquqi muxim ahamiyat kasb etadi. Yerga egalik xuquqi tufayli qishloq xo'jalik korxonalarini undan mustaqil tarzda foydalanishlari, o'zlari xoxlagan ekin turlarini yetishtirishlari, yetishtirilgan xosilni mustaqil ayirboshlashlari mumkin.

Erga nisbatan egalik xuquqi undan foydalanish xuquqini ham keltirib chikaradi. Yerni egallamasdan turib, undan foydalanib ham bulmaydi. SHuning uchun ularni kup jixatdan bir-biri bilan o'zviy bog'liq deyishi mumkin. SHuni aytish kerakki, yerdan foydalanish xuquqi mustaqil element sifatida yer xuquqiy munosabatlarda aloxida ahamiyatga va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yerdan foydalanish xuquqi deganda, Qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan yerning foydali xususiyatlarini o'zlashtirish, Yerni iktisodiy mahnoda ekspluatatsiya qilish tushuniladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish xuquqi mazmuni to'g'risida fikr yuritganda bu xuquqni bekor qilish yoki tuxtatib qo'yish masalasiga aloxida tuxtalib utish kerak. Yerdan foydalanish xuquqini tuxtatishning umumiy asoslari qonunda belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-

moddasi). Bu umumiy asoslar qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish xuquqini tuxtatish uchun ham taallukli xisoblanadi. Bular, asosan yer uchastkasidan ixtiyoriy voz kechish; Yer uchastkasi berilgan muddatning tugatish, korxonada faoliyatining tugaganligi, yerdan qonunda belgilanganidan boshqa maksadlarda foydalanishlik, yer uchastkasining tuprok unumdorligi pasayishi, uning kimyoviy va radioaktiv bo'lganini, ekologiya vaziyati yomonlashishiga yul qo'yishlik, belgilangan muddatlar mobaynida yer solig'ini o'zluksiz tulaslik va boshqalardir.

SHu bilan birga, yer uchastkalaridan foydalanishni tuxtatish qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 90-moddasida ko'rsatilgan yerga nisbatan gayriqonuniy harakatlarni sodir etganda ham, shuningdek yerning davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi (O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 37-moddasi) munosabati bilan ham tuxtalishi mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarini Yerdan foydalanish xuquqi mazmuni to'g'risida fikr yuritganda, albatta bu korxonalarining Yerdan foydalanish buyicha xuquq va majburiyatlariga tuxtalib utish lozim. CHunki Qishloq xo'jalik korxonalarini Yerdan foydalanish xuquqi mazmunini Qishloq xo'jalik korxonalarining Yerdan foydalanish buyicha xuquq va majburiyatlarini tashkil etadi. Bu xuquq va majburiyatlar O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksida ko'rsatilgan. CHunonchi, ushbu kodeksning 39-moddasiga ko'ra, Yer egasi, Yerdan foydalanuvchi, ijarachi va Yer uchastkasi mulkdori kuyidagi xuquqlarga ega: Yer uchastkasida undan foydalanish maksadiga muvofiq mustaqil xo'jalik yuritish, Qishloq xo'jalik ekinzorlari va kuchatzorlari hamda dovdaraxtlarga, yetishtirilgan Qishloq xo'jalik maxsuloti va uni realizatsiya qilishdan olingan daromadga bo'lgan mulk xuquqi, Yer uchastkasidagi mavjud keng foydali kazilmalar, o'rmonzorlar, suv ob'ektlaridan xo'jalik ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda foydalanish, Yerlarni sugorish va ularni zaxini kochirish, agrotexnika va boshqa melioratsiya ishlari o'tkazish, Qishloq xo'jalik ekinlarini, dov-daraxtlarni sugorish maksadida sugorish manbalaridan suv olish, uy-joy binolari, ishlab chiqarish, madaniy-maishiy xolda boshqa imoratlar va inshootlarni barpo etish, yer

uchastkasi olib qo'yilgan takdirda unga yetkazilgan zararning, shu jumladan boy berilgan foydaning koplanishini yoki yer uchastkasidan ixtiyoriy voz kechilganda sarflangan harajatlarning tulanishi talab bilan boshqa xuquqlarga ega.

Er kodeksining 40-moddasida qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish buyicha majburiyatlari sanab ko'rsatilgan. Bular, yerdan oqilona foydalanish, tuprok unumdorligini oshirish, yer solig'ini yoki yer uchun ijara xakini o'z vaktida tulashtirish, boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar xuquqlarini bo'zmaslik, maxalliy davlat xokimiyati organlariga yerdan foydalanish to'g'risida ma'lumotlarni o'z vaktida takdim etish, yerlarni muxofaza etish, mineral ugitlarni tugri kullash, begona utlarga qarshi ko'rashish, doni eroziyaga uchratmaslik, yerga nisbatan davlatning mulk xuquqini bo'zuvchi bitimlar to'zmasligi va boshqalardir.

Qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish xuquqi qonun bilan kafolatlanadi va ximoya kilinadi. Yer to'g'risidagi qonun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan samarali foydalanilayotgan qishloq xo'jalik korxonalarining yerdan foydalanish buyicha xuquqlarini muxofaza etadi. Qishloq xo'jalik korxonalarini yerdan foydalanish xuquqini ximoya qilish deganda qishloq xo'jalik korxonalariga qonunda belgilangan tartibda yerdan foydalanish soxasidagi xuquqlari hamda qonuniy manfaatlariga, ularni yer bilan ta'minlash, yer uchastkalarini gayriqonuniy ravishda olib kuymaslik, o'zboshimchalik bilan egallab olmaslik, yetkazilgan zararni koplashga qaratilgan chora-tadbirlar yigindisi tushuniladi.

Er to'g'risidagi qonun avvalo qishloq xo'jalik korxonalarining yerlarini noqishloq xo'jalik extiyojlariga o'tkazishdan ximoya etadi. Ayniksa sug'oriladigan Yerlarni boshqa toifaga o'tkazishga aloxida xollardagina yul qo'yiladi. Bunda qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi idoralari, shuningdek tabiatni muxofaza qilish idoralari bilan kelishib amalga oshirilish, o'ta zarur shart-sharoitlar vujudga kelgandagina berilishi lozim. Yer kodeksining 44-moddasiga ko'ra sug'oriladigan yerlarni sug'orilmaydigan yerlar sirasiga o'tkazish aloxida xollarda tuprok-meliorativ va iktisodiy shartlari hamda yerlarning suv bilan ta'minlanganligini, ulardagi mavjud suv resurslarini va bu suvlarga belgilangan limitlarni inobatga olib

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bilan kelishilgan xolda viloyat xokimi qaroriga binoan amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi korxonalari foydalanishida bo'lgan aloxida kimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar sug'orilmaydigan yerlar jumlasiga utkazilmaydi, zarur xollarda esa korxonalar, binolar va inshootlar kurilish uchun berishga aloxida xollarda Vazirlar Maxkamasining qaroriga binoan yo'l qo'yiladi (Er kodeksi 45-modda).

Er qonunchiligi qishloq xo'jalik korxonalarining yerlarini asossiz ravishda tortib olishda, olib qo'yishdan ximoya kiladi. CHunonchi, yer kodeksining 37-moddasida ko'rsatilishicha, yer uchastkasi yoki uning bir kismi davlat va jamoat extiyojlari uchun yer egasining roziligi bilan yoki yerdan foydalanuvchi va ijarachi bilan kelishilgan xolda tegishlicha tuman, shahar, viloyat xokimining qaroriga yoxud O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qaroriga binoan olib qo'yiladi. Agar yer egasi yer uchastkasini olib qo'yish haqidagi tuman, shahar, viloyat xokimining qaroriga yoki Vazirlar Maxkamasining qaroriga rozi bo'lmasa bu qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarining yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olinishdan ximoya qilinishi Yer Kodeksida aloxida belgilangan. Ushbu kodeksning 91-moddasiga binoan o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari ularga gayriqonuniy ravishda egalik kilingan va foydalanilgan vaqtda kilingan sarf-harajatlar koplannagan tarzda tegishlilikiga ko'ra kaytariladi. yer uchastkalarini foydalanish uchun yarakli xolatga keltirish yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxslar xisobidan amalga oshiriladi.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, yer qonunchiligi Qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati davrida ularga yetkazilgan zarar, nobudgarchilikning urnini koplash masalasini ham xal kilgan. Yer kodeksining 86-moddasid ko'rsatilishicha, yeruchastkasidan foydalanuvchiga yetkazilgan zarar (shu jumladan boy berilgan foyda)ning o'zni kuyidagi xollarda tula xajmda koplanni: yerlar olib qo'yilgan, kayta sotib olingan yoki vaktincha egallab turilganida; suv xavzalari, kanallar, kollektorlar, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlari va dov-daraxtlar uchun zararli moddalar chikaradigan boshqa ob'ektlar

kurish va ulardan foydalanishning taʼsiri hamda yuridik va jismoniy shaxslarning xosil kamayishiga va qishloq xoʻjaligi maxsulotining sifati yomonlashuviga olib boradigan boshqa xatti-harakatlari okibatida yerlarning sifati yomonlashgan takdirda koplanishi kerak. yetkazilgan zarar aybdor korxonalar, tashkilot tomonidan koplanadi.

Er kodeksining 41-moddasida urnatilishicha, yer egalari faoliyatiga davlat, xoʻjalik organlari, hamda mansabdor shaxslarning aralashuvi tahkiklanadi. SHuningdek, yer egalarining boʻzilgan xuquqlari tiklanishi kerak. Qishloq xoʻjalik korxonalarining yerdan foydalanish xuquqini kafolatlanganligi, qonun bilan muxofaza qilinishi ular ishlab chiqarish faoliyati barqarorligini taʼminlashga, qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishni rivojlantirishga olib keladi.

## **II-BOB. NAMANGAN VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGIDA YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNING MUAMMOLARI**

### **2.1. Namangan viloyati qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy –geografik tahlili**

Namangan viloyati Farg'ona vodiysidagi qadimgi sug'orma dehqonchilik rivojlangan va sug'orish inshootlari barpo qilingan hudud hisoblanadi. Zamonaviy sug'orish inshootlarini barpo qilish va Norin daryosi suvlaridan foydalanishga Qo'qon xonligi davrida asos solingan. 1821 yil Norin daryosidan Yangiariq kanali qaziladi. Ushbu kanal Namangan shahri va uning atrofidagi dehqonchilik hududlari suv ta'minotini yaxshilash imkonini beradi.

Namangan viloyatida mavjud qishloq xo'jaligi umumiy yer maydoni 718113 gektar bo'lib, shundan sug'oriladigan maydoni 282499 gektar, ekin ekiladigan maydon esa 194829 gektarni, ko'p yillik daraxtzorlar 39125 gektar shundan bog'lar maydoni 26966 gektar, shundan qishloq xo'jalik korxonalarida 20635 gektar, aholi xo'jaliklarida 6331 gektar, intensiv bog'lar 745 gektarni tashkil etadi, tokzorlar maydoni barcha toifadagi xo'jaliklarda 13,4 ming gektar bo'lib, shu jumladan fermer xo'jaliklarida 9,1 ming gektar, hosilli maydon 8,0 ming gektar

Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida yer resurslaridan foydalanish tubdan o'zgardi. Ayniqsa qishloq xo'jaligida mulkdorlar sinfini shakllanishi qishloq xo'jaligida yer resurslaridan yuqori darajda foydalanilishiga sabab bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday qishloq xo'jaligi korxonasi o'ziga tegishli bo'lgan yerlardan yuvori darajada foydalanishga harakat qiladi. Lekin shuni unitmaslik kerakki yer resurslaridan foydalanishda ularni muxofaza qilishni esdan chiqarmaslik kerak. Yerdan yuqori darajada xosil olish uchun yerga vaqtida ishlov berish kerak. Agrotexnika tadbirlarini aynan belgilangan vaqtida o'tkazilishi ham yuqori hosil garovi bo'lib, ham mavjud yerlarni xolatini yanada yaxshilash uchun xizmat qiladi. Namangan viloyatida yer resurslari haqida to'la ma'lumotga ega bo'lish uchun viloyatda mavjud tuproqlar va ularni tarqalishi haqida bilish muhim

ahamiyatga ega. Namangan viloyatida vertikal mintaqalilikka mos tuproq qatlami tarqalgandir. Sirdaryoning chap soxili (Mingbuloq tumani va Pop tumanining chap soxili hududlari), Uchqo'rg'on va Norin tumani, adirorti tepaliklari va adirlarning qo'yi qismlaridagi prolyuvial qiya tekisliklarda sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar keng tarqalgan. Bu tuproqlar o'tloq, o'tloqi-botqoq va turli darajada sho'rlangan sho'rxoqlarning qishloq xo'jalik maqsadlarida intensiv o'zlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan.

Sug'oriladigan o'tloq tuproqlar prolyuvial qatlamlashgan yotqiziqlar o'stida yuzaga kelganligi sababli genetik gorizontallarini ifodalash ancha qiyin. CHunonchi, uning eng yuqori 20-25 sm.li haydov qatlami, uning ostida 15-18 sm.li haydov osti qatlami ajartiladi. Baʼzi yerlarning 60-70 sm chuqurligida chirindiga boy soz qatlami uchraydi. Bu tuproqlarda chirindi miqdori 1-2 foiz bo'lib, sizot suvlarining minerallashuv darajasiga ko'ra turli darajada sho'rlangandir. Markaziy farg'ona hududida bunday tuproq qoplamiga ega yerlarga qish oylari va baʼzan erta bahorda yaxob suvi berib, to'zlari yuvib yuboriladi.

SHunigdek, Mingbuloq tumani va Pop tumani chap soxili hududidagi sug'oriladigan o'tloq tuproqlarida shamol eroziyasi (deflyatsiya), kuchli rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Namangan viloyatida 60 ming gektar yer undan, 50 ming gektari o'rtacha va kuchli darajada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan maydonlar shamol eroziyasiga uchragan. Bunday holat viloyat qishloq xo'jaligiga jiddiy iqtisodiy zarar keltirmoqda. Ayniqsa, bahor oylaridagi (aprel-may) kuchli shamol g'o'zalarni, boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini qum bilan ko'chirib yuboradi yoki ildizi bilan qo'porib tashlaydi, katta-katta paxta maydonlari, irrigatsiya inshootlari va yo'llari qum ostida qoladi.

Markaziy Farg'onadagi ko'chma qum yaʼni barخانlar ham har yili o'rtacha 15-20 metrga ko'chib yuradi. Bunday tabiiy ofatga qarshi ko'rashning asosiy vositasi sifatida qishloq xo'jalik maydonlarining bo'yini shamol esadigan tomonga ko'ndalang joylashtirish va ixotazorlar barpo qilish, yer maydonlari chetlari, ariq-

zovur bo'ylariga daraxtlar ekish orqali shamol kuchini pasaytirish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Ixotazorlar barpo etishga chidamli shumtol, sug'diyon toli, akatsiya,, tut, jiyda, Yerak, o'rik kabi daraxtlarni ekiladi, qum tepalari va barxanlarga esa saksovul va qandim urug'lari sepiladi.

Mutaxassislar fikricha, ihotazorlar orasidagi masofa daraxt bo'yidan 15 marta katta bo'lgan mintaqada 50-60 foiz, 20 marta katta bo'lgan mintaqada 31-40 foizgacha shamol kuchini kesadi. Ihotazorlar aniq vaqtda tuproq xossalari ham ijobiy taʼsir qilib, yoz oylarida tuproqdagi namning ortiqcha bug'lanishini kamaytiradi, yer osti suvlari pasayadi. Agar ihotazorlar qo'sh qator toldan iborat bo'lsa, ularning taʼsiri 160-170 m gacha borishi, yer osti suvlarining 100 sm. gacha pasayishi sho'rланish darajasi kamayishi mumkin.

Namangan viloyatining Pop tumanidan to Uychi tumanining sharqiy hududlariga qadar o'ziq-o'ziq ko'tarilib turgan adirlarni och tusli bo'z tuproqlar egallab yotadi. Viloyatda sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarning 60 foizi shu mintaqaga to'g'ri keladi. Bu tuproqlarning asosiy xususiyati chirindi qatlamini g'oyat yupqaligi va chirindi miqdorining juda ozligi, tuproq skeletlik darajasining yuqoriligi, mayin jinslar qatlamini 30-50 sm. qalinlikda, karbonatlar va gipslarning yuqori qatlamlarda joylashganligi, suv o'tkazuvchanligi va suvga chidamlilik darajasi hamda tuproq eroziyasiga tortilish darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Och tusli bo'z tuproqlar yupqa (15-20 sm) bo'lib, shag'al o'stida hosil bo'lgan chirindisi oz (05-08 foizgacha), 10-12 sm chuqurlikda esa gips joylashgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, adirlar qadimda mayin jinslar va daraxtlar bilan («Boburnoma») qoplangan bo'lsada, antropogen faoliyat taʼsirida bu tuproqlar yuzasidagi mayin jinslar yuvilib ketgan.

Mayin jinslar bilan qoplangan adirlarda och tusli bo'z tuproqlar keng tarqalgan bo'lib, bo'z rangli tangasimon va mayda kesaksimon tarkiblidir. Uning ostida 10 sm qalinlikdagi qatlam bo'z rangli, quyi tomonga dog'lar kamayib boradi.



Yirik kesaksimon va mustahkam tarkiblidir. Karbonatli qatlam 12-15 sm dan boshlansada tipik bo'z tuproqlardagisi yaxshi ifodalanmaydi. Unga nisbatan gipsli qatlam yaqqol bilinib turadi va 50-70 sm chuqurlikda joylashgandir. Adirorti tekisliklari va adirlarning ayrim joylarida sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylarda sho'rxoklar hosil qilgan. Jumladan, CHust tumanidagi SHoyon Baymoq, Karkidon, Varzik va O'zbekiston qishloq fuqarolar hududlari, Kosonsoy tumanidagi Buloqboshi va Rovot hududlarida uchraydi. SHO'rxoklar bo'z tuproqlar joylashgan yerlarda katta maydonlarni xosil qilmasada dehqonchilikni rivojlantirishga noqulaylik tug'diradi. Ayni vaqtda, bir qator meliorativ tadbirlar majmuasi-yaxob berish, kollektor-drenaj tizimini barpo qilishga neogen va qo'yi to'rtlamchi davrda yaratilgan sho'xlardan iborat suv o'tkazmaydigan qatlamlarning yer yuzasiga yaqin joylashganligi kuchli taʼsir qiladi.

Tipik va och tusli bo'z tuproqlar tarqalgan hududlar o'zoq yillardan beri (XX asr boshlaridan boshlab) sug'orma dehqonchilik maqsadlarida foydalanib, kelinadi. Natijada, bu yerlarni intensiv o'zlashtirilishi va sug'orilishi oqibatida sug'oriladigan tipik va och tusli bo'z tuproq tiplari hosil bo'lgan.

SHuningdek, sug'oriladigan bo'z tuproqlardan o'zoq vaqt qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda foydalanilishi bo'z-voha tuproqlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Tadqiqotchilarning dastlabki yillari chirindi miqdorining kamayib borishi, so'ngra agrotexnik tadbirlar oqibatida chirindi miqdorining ortib borishi hamda foydalanishning davom etishi tuproqda karbonatlar va gipsning yuvilishiga, konkrentsiyalarning parchalanib ketishiga olib kelgan. Tuproq kesmasi qalinlashgan va xilma-xil moddalarning miqdori ortib, kolloid zarralar ko'paygan. SHunisi xarakterliki bu tuproqlar tarqalgan yerlarda sug'orish (irrigatsion) erroziyasi ham keng tarqalgan. Bugungi kunda sug'orma dehqonchilik intensiv rivojlangan adirlar mintaqasi alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, Pop, CHust, To'raqo'rg'on (shimoliy hududlari), Kosonsoy tumanlarida o'tgan asrning 70-yillarining o'rtalaridan boshlab, adirlar intensiv o'zlashtirilishi oqibatida tuproqning yuqori unumdorlik qoplami yuvilib, shag'alli qismlari ochilib qolishidan tashqari suv urib ketgan o'pirmalari, jarliklar yuzaga kelgan. Namangan

viloyatida 45 ming gektar yer irrigatsion eroziyasiga tortilgan, shundan, 20 ming gektar, o'rtacha va kuchli darajada eroziyon hodisa rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bu jarayon tuproqlarning suv-havo rejimiga va unumdorligiga ta'sir etib, dehqonchilik uchun yaroqsiz xolga olib kelmoqda.

Namangan viloyatida sug'orish eroziyasiga qarshi-tadbirlar majmuasi (paxta-beda olmashtirib ekish asosida tuproq tarkibini yaxshilash, uning yuvilishiga chidamlilik darajasini oshirish, turli polimErlardan, foydalanish va sug'orish agrotexnikasini tubdan yaxshilash) amalga oshirilmoqda. CHotqol tog' tizmasining dasht hududlarini gilli-chirindili och tusli qo'ng'ir tuproqlar egallab yotadi. Bu tuproqlar chimli o'simlik ildizlarining ko'pligi, mayda kesaksimon tarkibli, 40-60 sm qalinlikka ega bo'lgan zich qatlamlardan iborat.

Qo'yirog'da esa och-qo'ng'ir rangli tuproqlar och tusga kirgan, salgina kesaksimon tarkibi kam zichlingan qatlamlardan iborat. Bu tuproqlarda chirindi miqdori 4-6 foizdan iborat bo'lib, aminosilikatlarning quyi qatlamlarga tomon kam yuvilganligi (ayniqsa alg'p va subalg'p tog'-o'tloq tuproqlarida kuchli rivojlangan) va podzollanish jarayoni sust rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

CHotqol tog' tizmasining archazorlar bilan qoplangan hududlarida jigarrang tuproqlar tarqalgan. Bu hududlarda yozda ko'p yillar davomida yaylov Chorvachiligini rivojlanganligi, archazorlarni ko'plab kesish oqibatida tog' yonbag'rlarini ochilib qolishi eroziyon jarayonlarning kuchayishi tuproqlar morfologiyasiga, ta'sir etmoqda.

SHuningdek, jigarrang tuproqlar morfologik to'zilishiga ko'ra och qo'ng'ir, to'q qo'ng'ir va och rangli jigarrang qatlamlardan iborat. Yuqori qatlamlar kesaksimon, ostida yong'oqsimon tarkibli, chirindi miqdori 4-8 foiz bo'lib, pastki qatlamlarda ozayib boradi.

CHotqol tog' tizmasining janubiy yon bag'rlarida jigarrang tuproqlar mintaqasidan qo'yida yuvilgan shag'alli bo'z tuproqlar tarqalgan. Podshootasoy vohasida to'q tusli bo'z tuproqlar balandligi 1000-1500 m bo'lgan rel'efi kuchli parchalangan tik yonbag'irlarni ishg'ol qildi. Bu hududlardagi tosh grunt ustida yaratilgan tuproqlar lalmikor dehqonchilik uchun qulaydir. Ayniqsa,

Yangiqo'rg'on tumanining Oqtom va Nanay qishloqlari atrofida qalin lyossimon tuproqlar, CHortoq tumani Poramon qishloqlari atroflarida esa tub jinslar yer yuziga yaqinlashgan tog'larda shuningdek, Mamay, Nanay va Hazratisho atrofida parchalangan relief qaror topgan yerlar skeleti jinslar ustida yaratilgan va unchalik qalin emas. To'q tusli bo'z tuproqlar uchun xos bo'lgan tuproqlar kesmasida chirindili qatlamlar 20-25 sm. bo'lib, bo'z rangli, yengil soz jinslardan iborat kesaksimon tarkibiga ega. O'tli qatlam esa 50-60 sm. chuqurlikkacha boradi. Qo'ng'ir bo'z rangli, yengil-soz jinslar ko'p kesaksimon tarkiblidir.

Namangan viloyatida o'rtacha va baland tog' mintaqalari tuproqlari uchun xarakterli xususiyat balandlikka nisbatan to'q bo'z tuproqlarning nisbatan unumdor, chirindi miqdori 2-2,5 foizgacha tog'-o'rmon tuproqlari bilan o'rin almashuvidir. Namangan viloyatining umumiy yer maydoni 718113 gektarni tashkil etib shundan sug'oriladigan maydon 282440 gektarni tashkil etadi. Viloyatda jami ekin yerlari 199008 gektarni tashkil etib bu yerlarning hammasi sug'oriladigan yerlar xisoblanadi. Viloyatda ko'p yillik daraxtlar egallagan yer maydoni 36195 gektarni tashkil etib bu yerlarning ham hammasi sug'oriladigan yerlar xisobiga to'g'ri keladi. Viloyatda yaylovlar egallagan yer maydoni 152648 gektar yerni tashkil etadi.(6-jadval) Namangan viloyatida jahmi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar maydoni 390350 gektarni tashkil etib, shundan sug'oriladigan yer maydoni 282440 gektarni tashkil etadi. Viloyatimizda aholi tomorqalari egallagan yer maydoni jahmi 48296 gektarni tashkil etib shundan 39442 gektari sug'oriladigan yerlar xisasiga to'g'ri keladi.

Namangan viloyatida meliorativ tayyorlov bosqichidagi yerlar 854 gektarni tashkil etadi.

Namangan viloyatida oz miqdorda bo'lsa ham o'rmonlar mavjud bo'lib ular egallagan yer maydoni 36150 gektarni tashkil etib, shundan 4860 gektari sug'oriladigan yer maydoniga to'g'ri keladi.

Viloyatda qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan Yerlar maydoni 152648 gektarni tashkil etadi.

## Namangan viloyati yer maydonlari bo'yicha ko'rsatkichlar

	gek.	2008y.	2009y.	2010y.
<b>Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar</b>	<b>ga</b>	<b>390701</b>	<b>390464</b>	<b>390350</b>
Yaylovlar	ga	152789	152693	152648
Boshqa yerlar	ga	2619	2551	2499
<b>Xaydaladigan yerlar jami</b>	<b>ga</b>	<b>199370</b>	<b>199218</b>	<b>199008</b>
Sug'oriladigan yerlar	ga	282675	282532	282440
Lalmikor yerlar	ga	0	0	0
Jami xaydaladigan yerlardan:	ga	0	0	0
SHo'rlangan yerlar	ga	26977	26240	25995,4
<i>SHu jumladan</i>				
-Kuchli sho'rlangan yerlar	ga	1241,0	1013,0	973,8
-O'rta sho'rlangan yerlar	ga	7829,0	7296,0	7197,5
-Kuchsiz sho'rlangan yerlar	ga	17907,0	17931,0	17824,1
-Tekshirilmagan yerlar	ga	0	0	0
Ko'p yillik daraxtzorlar	ga	35923	36002	36195
SHu jumladan mevali bog'lar	ga	21033	21351	21868

**Manba, Namangan viloyati suv xo'jaligi boshqarmasi mag'lumotlari asosida tuzildi**

Er qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining «Er kodeksi» to'g'risidagi qonunining 1-moddasida undan halqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida oqilona foydalanish zarurligi qayd qilingan. SHu qoidaga amal qilgan holda har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt yerni asrashi, avaylashi va undan samarali foydalanishi zarur.

Namangan viloyati qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yerdan foydalanish darajasi oshgan sayin mahsulot hajmi ko'payib, ishlab chiqarish samaradorligi oshib, oqibatda iqtisodiyot mustahkamlanib boradi. SHuning uchun ham yerdan foydalanish darajasini o'zluksiz ravishda o'rganish zarur.

Bir birlik yer maydoni hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmini yerdan foydalanish samaradorligi deb tushuniladi. Demak, yerdan foydalanish samaradorligi 1 yoki 100 gektar maydon hisobiga yetishtirilgan mahsulot bilan ifodalanadi.

Erda foydalanish samaradorligi asosan quyidagi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

- 1) Bir yoki yuz gektar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi;
- 2) Bir yoki yuz gektar hisobiga olingan yalpi daromad (sof mahsulot);
- 3) Bir yoki yuz gektar hisobiga olingan sof daromad (foйда).

Ushbu ko'rsatkichlar yer mahsuldorligi deb ham ataladi.

Yalpi mahsulot hajmi (yalpi daromad hajmi) ni yer maydoniga (M) bo'lish orqali samaradorlikning asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari aniqlanadi, ya'ni quyidagi formulalardan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$YeRMq \frac{\Sigma YM}{\Sigma M}; \quad YeRMq \frac{\Sigma YD}{\Sigma M}; \quad YeRMq \frac{\Sigma CD}{\Sigma M};$$

Bunda, YeRM-Er mahsuldorligi darajasi;

$\Sigma YaM$ -yalpi mahsulot

$\Sigma YaD$ -yalpi daromad

$\Sigma SD$ -sof daromad.

Agar, ishlab chiqarish yo'nalishi bir ekin turiga moslashgan bo'lsa, yalpi mahsulotni ekinzor maydoniga, agar har xil yo'nalish ekinlari bo'yicha mahsulot yetishtirilgan bo'lsa, kadastr maydonga bo'lish orqali aniqlash to'g'riroq bo'ladi.

Kadastr maydon har bir ekinning fizik maydoni o'lchamini (FM) kadastr maydonga aylantirish koeffitsentiga (KMAK) ko'paytirib, natijalarini jamlash orqali aniqlanadi.

$$\Sigma (FM * KMAK)$$

Har bir ekin turi bo'yicha 1 gektar maydon hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmini (BGM) shular orasida eng yuqori darajaga ega bo'lgan ko'rsatkich hajmiga (BGYuM) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$KMAKq \frac{BGM}{BGYuM}$$

1 gektar maydon hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmi ko'rsatkichlari orasida eng yuqori darajaga ega bo'lgani 1 koeffitsentga (yoki 100 ballga) teng deb

olinadi, qolganlarini kadastr maydonga aylantirish koeffitsenti har doim birdan kam bo'ladi.

Biz yalpi mahsulot (YaM) bo'yicha hisoblangan yer mahsuldorligi (1 gek. hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot) misolida quyida tahlilni ko'rib chiqamiz. Buning uchun hisobot yilidagi yer mahsuldorligi darajasidan bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) yer mahsuldorligi darjasini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\Sigma Я M_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma Я M_0}{\Sigma M_0} = \pm \Delta_{M, Я M}$$

Ushbu o'zgarish ikki omilning ta'siri ostida yuzaga kelgan:

1) Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonining o'zgarish hisobiga (kadastr maydonining o'zgarishi hisobiga);

2) Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga;

Ushbu omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlaymiz. Omillar ta'sirini aniqlashga o'tishdan oldin «SHartli yer mahsuldorligi» ko'rsatkichini aniqlab olish zarur.

«SHartli yer mahsuldorligi» ko'rsatkichini aniqlash uchun bazis yilidagi yalpi mahsulot hajmini (YaM<sub>0</sub>) hisobot yilidagi yer maydoniga (M<sub>1</sub>) bo'lish kerak

$$ERM_{SHq} \frac{\Sigma Я M_0}{\Sigma M_1}$$

SHundan keyin yer mahsuldorligi darajasining o'zgarishiga omillarning ta'siri aniqlanadi.

Erdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga yer maydoni hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «SHartli yer mahsuldorligi» darajasidan bazis davrdagi (yoki rejadagi) yer mahsuldorligi darjasi chegirib tashlanadi:

$$\frac{\Sigma Я M_0}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma Я M_0}{\Sigma M_0} = \pm \Delta_M$$

Erdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yer mahsuldorligi darajasidan shartli yer mahsuldorligi darjasi chegirib tashlanadi:

$$\frac{\Sigma Я M_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma Я M_0}{\Sigma M_1} = \pm \Delta_{Я M}$$

Ushbu ikki omil taʼsirlarining yigindisi yer mahsuldorligi darjasining umumiy oʻzgarishiga teng kelishi kerak:

Endi quyidagi -jadvalda keltirilgan maʼlumotlardan foydalanib fermer xoʻjaligi boʻyicha yer mahsuldorligining tahlilini yetishtirilgan paxta va bugʻdoy misolida koʻrib chiqamiz.

Birinchi navbatda 6-jadvaldagi maʼlumotlar asosida yerdan foydalanish samaradorligi darajasi va uning oʻzgarish aniqlanadi:

$$\text{Bazis yili uchun } EpM_0 = \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_0} = \frac{64404 + 51614}{160 + 128,5} = \frac{116018}{288,5} = 402,1 \text{ ming soʻm}$$

$$\text{Hisobot yili uchun } EpM_1 = \frac{\Sigma YM_1}{\Sigma M_1} = \frac{67678 + 65570}{158 + 154} = \frac{133248}{312} = 427,1 \text{ ming soʻm}$$

### 6 -jadval

#### Er mahsuldorligini hisoblash uchun zarur boʻlgan maʼlumotlar

t/r	Koʻrsatkichlar	Paxta		Bugʻdoy	
		Bazis yili	Hisobot yili	Bazis yili	Hisobot yili
1	Ekin maydoni, ga	160	158	257	257
2	Hosildorligi, ts/ga	22,5	23,9	45	57
3	Yalpi hosil, ts	3600	3783	11565	14692
4	1ts mahsulotni taqqoslash bahosi (bazis yilini), sum	17890	17890	4463	4463
5	Yalpi mahsulot (taqqos.bahoda) ming soʻm	64404	67678	51614	65570
6	1 gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot, ming soʻm	402,5	428,3	200,8	255,1
7	Kadast maydonga aylantirish koeffitsent	1,0	1,0	0,5	0,6
8	Kadastr maydon, ga (1qator:7qator100)	160	158	128,5	154

Manba, Namangan viloyati suv xoʻjaligi boshqarmasi maʼlumotlari asosida tuzildi

Birinchi navbatda 7-jadvaldagi maʼlumotlar asosida yerdan foydalanish samaradorligi darajasi va uning oʻzgarish aniqlanadi: Bazis yili uchun

$$EpM_0 = \frac{\Sigma YM_0}{\Sigma M_0} = \frac{64404 + 51614}{160 + 128,5} = \frac{116018}{288,5} = 402,1 \text{ ming soʻm}$$

$$\text{Hisobot yili uchun } EpM_1 = \frac{\Sigma YM_1}{\Sigma M_1} = \frac{67678 + 65570}{158 + 154} = \frac{133248}{312} = 427,1 \text{ ming soʻm}$$

Umumiy oʻzgarishi:

$$\frac{\Sigma ЯМ_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma ЯМ_0}{\Sigma M_0} = \frac{133248}{312} - \frac{116018}{288,5} = 427,1 - 402,1 = +25 \text{ ming so'm}$$

Demak, 1 gektar yer maydoni hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hisobot yilida 427,1 ming so'mni, bazis yilida 402,1 ming so'mni tashqil qilgan, natijada yer mahsuldorligi darajasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 25 ming so'mga yoki 6,2 % ga oshgan.

Ushbu o'zgarish yuqorida qayd qilganimizdek, ikki omil hisobiga yuzaga kelgan.

1-omil-kadastr maydon o'zgarishining taʼsiri:

$$\frac{\Sigma ЯМ_0}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma ЯМ_0}{\Sigma M_0} = \frac{116018}{312} - \frac{116018}{288,5} = 371,8 - 402,1 = -30,3 \text{ ming so'm}$$

Demak, kadastr maydonning 23,5 gektarga kamayishi natijasida 1 gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmi (er mahsuldorligi) hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 30,3 ming so'mga yoki 7,5 % ga kamaygan.

2-omil - yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining taʼsiri:

$$\frac{\Sigma ЯМ_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma ЯМ_0}{\Sigma M_1} = \frac{133248}{312} - \frac{116018}{312} = 427,1 - 371,8 = +55,3 \text{ ming so'm}$$

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan yalpi mahsulot hajmining 17230 ming so'mga oshishi natijasida 1 gektar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi 55,3 ming so'mga yoki 14,8 % ga oshgan.

Demak, yer mahsuldorligi darajasining oshishi asosan yalpi mahsulot hajmining oshishi natijasida yuzaga kelgan.

## **2.2.Namangan viloyatida yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari**

Namangan viloyatida keyingi 50 yil mobaynida adirlar kuchli sur'atda o'zlashtirildi. Bu Jiydalisoy, Morg'uzorsoy, Jabborsoy, Kengsoy, Sassiyoqsoy kabi soylik va adirlar rel'efining parchalanib ketishiga, kuchli errozion jarayonlarning rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa CHust, To'raqo'rg'on, Namangan, Yangiqo'rg'on, CHortoq, Kosonsoy tumanlaridagi lyoss va lyossimon qatlamlar

intensiv o'zlashtirish hamda noto'g'ri sug'orish ta'sirida irrigatsion eroziya jarayonlari rivojlanganligi va tuproq sho'rlanishi hodisalarining kengayib borayotganligi bilan ajralib turadi. Buning asosiy sabablari yerlarni noto'g'ri haydash, yonbag'irlari qiya bo'lgan joylarga bir yillik ekinlar ekish, o'rmonlarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishdir.

Namangan viloyatida 1913 yil sug'oriladigan ekin maydonlari 168,9 ming gektar bo'lsa, 1928 yil 130,7, 1940 yil 150,0, 1950 yil 164,7, 1960 yil 86,1, 1970 yil 188,5, 1980 yil 202,7, 1990 yil 252,1, 2000 yil 278,2 va 2012 yil 279,8 ming gektarga yetdi. Keyingi 55 yilda sug'oriladigan ekin maydonlari 164,7 ming gektardan 282,5 ming gektarga yoki 144,7 ming gektarga ko'paydi. Yangi yerlarni o'zlashtirish asosan Pop, Mingbuloq, Kosonsoy va Namangan tumanlarida amalga oshirildi

Namangan viloyati bo'yicha 1995 yilda sho'rlanmagan ekin maydoni 231998 gektarni, kuchsiz sho'rlangan yerlar 31690 gektarni, o'rtacha sho'rlanganlik 4240 gektarni, kuchli sho'rlanganlik esa 870 gektarni tashkil etgan. 2000 yilda esa sho'rlanmagan ekin maydonlari 235807 gektarni, kuchsiz sho'rlanganlik 27510 gektarni, o'rtacha sho'rlanganlik 13040 gektarni, kuchli sho'rlanganlik 1880 gektarni tashkil etgan. 2001 yilda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 244480 gektar, 22693 gektar, 10085 gektar va 1235 gektarni, 2003 yilda 246784 gektar, 17741 gektar, 12634 gektar, 2302 gektar va 2012 yilda 278410 gektar, 18655 gektar, 9789 gektar va 2161 gektarni tashkil etdi. 1995 yilda sho'rlangan yerlar umumiy sug'orish maydonining 13,7 foizini tashkil qilgan. 2000 yilda bu ko'rsatkich 15,2 foizni, 2001 yilda 12,2 foizni, 2003 yilda 11,7 foizni, 2012 yilda esa 8,95 foizni tashkil etgan.

Namangan viloyatida 278410 ga sug'oriladigan maydonlar bo'lib, shundan 135882 ga zakan-zovurlar bilan ta'minlangan, jami zakanlarning uzunligi 5070,7 km dan iborat. Zax qochirish tarmoqlarini 1813,8 km qismi xo'jaliklararo zakanlar, 3227,31 km qismi xo'jalik ichki va 29,6 km qismini yopiq-yotik zovurlardan iborat

**Namangan viloyati tumanlari bo'yicha xo'jaliklararo va xo'jalik ichki zovurlarining uzunligi**

№	Tumanlar nomi	Zakan-zovurlar umumiy uzunligi km	SHundan			Tik quduq soni dona
			Xo'jaliklararo km	Xo'jaliklar ichida km	Yopiq-yotiq zovurlar km	
1.	Mingbuloq	1672,2	515,3	1151,2	5,7	58
2.	Kosonsoy	128,9	60,2	68,7	-	-
3.	Namangan	560,5	248,5	312,0	-	61
4.	Norin	477,1	203,6	253,5	20,0	67
5.	Pop	778,2	104,5	673,7	-	1
6.	To'raqo'rg'on	236,5	76,8	167,0	0,8	5
7.	Uychi	343,3	178,5	164,1	0,7	33
8.	Uchqurg'on	55,7	20,8	34,9	-	-
9.	CHortoq	139,7	84,7	55,0	-	-
10.	CHust	433,8	213,1	220,7	-	-
11.	Yangiqo'rg'on	225,2	107,8	115,0	2,4	3

**Manba:** Namangan viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Sug'orish eroziyasi asosan suvdan noto'g'ri foydalanish natijasida kelib chiqadi va bu jarayon ham kengayib bormoqda Sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishga, maydonlarning sho'rlanishi va qayta sho'rlanishi ham sezilarli ravishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yerlarning sho'rlanishi tufayli tuproq unumdorligi yil sayin pasayib bormoqda.

Namangan viloyati bo'yicha 2012 yilda sug'oriladigan umumiy ekin maydoni 279810 gektarni tashkil etdi. Viloyatda sug'oriladigan ekin maydonlarining tuproq sho'rlanishi jarayonlari kuchayishiga barham berish va tuproq sho'rlanishi darajasini pasaytirish, sho'r yuvishni o'z vaqtida sifatli o'tkazish uchun barcha xo'jaliklarga ilmiy asoslangan tavsiyanomalar ishlab chiqish, sho'r yuvish sifati monitoringini tashkil etish, meliorativ holati yomonlashayotgan yerlarni aniqlash va buning sabablarini o'rganish, yerlarni yaxshilashni tashkil qilish va loyihalash zarur bo'lmoqda.

Namangan viloyatida yer resurslaridan foydalanishni tashkil etishda, birinchi, o'ziga xos xususiyatlar va mavqega ega hisoblangan Namangan viloyati

mintaqasida qishloq xo'jaligida yerlardan foydalanishni hududiy tashkil etishning tabiiy va iqtisodiy-geografik, demografik, tarixiy, geoekologik shartlari hamda ularning majmualari baholanishiga erishilganligi, hududiy tashkil etish nazariyasida ilk bor qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishning hududiy tashkil etish jarayonini sub'ekt (qishloq xo'jaligi) va ob'ekt (er resurslari) imkoniyatlari bo'yicha baholash tamoyillarining ishlab chiqish, ikkinchi, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda barqaror rivojlanish tamoyillari va bozor iqtisodiyoti talablari hisobga olingan holda, hududning tabiiy-agrar imkoniyatlari bo'yicha iqtisodiy-geografik rayonlashtirilish, uchinchi, Namangan viloyati aholisi xo'jalik faoliyatini tarixiy o'rganish nuqtai nazaridan, qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishni hududiy tashkil etishda mintaqada shakllangan anhana, ko'nikma va tajribalardan foydalanish qonuniyatlarining aniqlash, to'rtinchi, yer resurslaridan foydalanish bo'yicha mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, er resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini baholashda "geotriion"lar usulini qo'llagan holda, uning boshqa mintaqalar bilan o'zaro taqqoslab o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

SHu bilan birga yer resurslaridan samarali foydalanishda gidrogeologik sharoitni, xususan, sug'oriladigan tuproqlarning sho'rflashuvi, botqoqlashuvi kabi salbiy jarayonlar, yer osti suvlarining o'rtacha chuqurligi, ularning oqimi, tabiiy drenaj holati bilan bir qatorda suv bilan ta'minlanganlik darajasini ham o'rganishga alohida e'tibor qaratish kerak. Bu jihatning alohida o'rganilishiga ehtiyoj birinchidan, mintaqada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer resurslarining katta qismi sug'orma dehqonchilik amaliyoti bilan bog'liqligi, ikkinchidan, Namangan viloyatida sun'iy suv havzalarini bunyod etishning bugungi kunda ham qizg'in amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

Xo'jalikning yer fondida yaroqli yerlar bo'ladi. Muayyan ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan yerlar yaroqli yer deb ataladi. Yer fondi hozirgi tasnifiga ko'ra quyidagi yaroqli yerlarga bo'linadi: Haydaladigan yerlar - shudgor, partov yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar, tokzorlar), pichanzorlar, yaylovlar va o'tloqlar, o'rmonlar, butazorlar, botqoqlar, suv ostidagi yerlar, yo'llar, binolar ostidagi yerlar, ko'chalar, hovli va boshqa yerlar.

Portov yer-avvalar ekin eqilib, keyinchalik esa foydalanmay tashlab qo'yilgan yerlardir.

Bizda yaroqli yerlar tarkibi o'zgartirilib, bir xil yaroqli yer ikkinchi turga aylantirilib turiladi, partov yerlar agrotexnika tadbirlari yordamida o'zgartirilib ekin maydoniga, botqoqliklar quritilib shudgorga aylantiriladi.

Yaroqli yerning bir xilini boshqa xilga aylantirish yaroqli yerlar transformatsiyasi deb ataladi.

Erni iqtisodiy baholashning bosh mohiyati uni sifatining qishloq xo'jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat unumdorligiga taʼsirini aniqlashdan iborat.

Odatda, yerning tabiiy, sunʼiy va samarali hosildorlik xususiyatlari ajratiladi. Yerning tabiiy hosildorligi tuproqning hosil bo'lish jarayonlari bilan bog'liq. Sunʼiy hosildorlik inson tomonidan unga turli ishlov berish (haydash, o'g'it solish, melioratsiya, agrotexnik va boshqa tadbirlar) jarayonida vujudga keladi. Samarali yoki iqtisodiy hosildorlik tabiiy va sunʼiy hosildorliklarning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'ladi. Aslida, bu ikki guruhdagi hosildorlik yaqindan bog'liq bo'lib, birbirlarini o'zaro taqozo etadi. Sunʼiy hosildorlikning bo'zishi tuproq degradatsiyasiga olib keladi. Yerning hosildorligi qotib qolgan hodisa emas, u o'zgarib turadi: tabiiy va inson omillari taʼsirida yuqori bo'lishi yoki aksincha pasayishi mumkin. SHuning uchun ham Yerning iqtisodiy bahosini butun bir umrga yetarli qilib aniqlanmaydi, uni maʼlum vaqtlarda qaytadan aniqlab turish lozim. Yerni iqtisodiy baholashda uning faqat hosildorligigagina emas, shuningdek, joylashgan o'rni, chunonchi, shaharlarga yaqinligi, sanoat markazlaridan o'zoqligi, transport qatnovi yo'lga qo'yilganligi ham hisobga olinadi.

Erni iqtisodiy baholash jarayoniga relʼefning o'ydim-chuqurligi, gorizontal parchalanganligi, qiyaligi, tuproqning qalinligi, toshloqligi, mexanik tarkibi, tuproq turi va kichik turi, grunt suvlari sathining joylashuvi, tuproq tarkibida birlamchi to'z va gipsning mavjudligi, shamol va boshqa hodisalar faol taʼsir etadi. Bu omillarni tahlil qilish bilan tuproq ball tizimida baholanadi, so'nggida yer kadastri ishlab chiqiladi yerni iqtisodiy baholash maqsadida uni materiallar bilan

taʼminlash uchun, shuningdek, qishloq xoʻjaligini rejalashtirish va tashkil qilish niyatida hamda yer balansini, yerni baholashning hududiy birliklarini hisobga olish uchun barcha yerlarni toifalarga boʻlish maqsadga muvofiq: xoʻjalik ichidagi va umumiy yer (baholash birliklari). Bu birliklar xoʻjalikning ichida qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishini rejalashtirish va tashkil qilish talablariga mos kelishi lozim. Bu toifadagi yerlar oʻz navbatida yana ikki guruhga ajratilishi mumkin: birinchi guruhdagi yerlarga xoʻjalikning yerdan foydalanish toʻzilmasiga muvofiq xoʻjalik uchun umuman ajratilgan yerlar, brigadalar, fermerlar va boshqalarga foydalanish uchun berilgan yerlar kiradi; ikkinchi guruhga xoʻjalik jihatidan foydalaniladigan (ekinzorlar) yer massivlari, chunonchi, paxta, sholi, bugʻdoy, yem-xashak, poliz, bogʻ, oʻrmon va boshqalar ekiladigan yerlar, oʻt-almashlab ekish uchastkalari, ayrim dalalar, ishdan chiqqan maydonlar, yaylov, pichanzor va boshqalar kiradi. Jamoa xoʻjaligi hududida barcha ekinzorlarni shu tartibda oʻzaro bogʻliq holda solishtirish yoʻli bilan yerning nisbiy bahosini aniqlash mumkin.

SHuni nazarda tutish kerakki, ekinzorlar joylashishida avvalo ularni maʼlum relief elementlariga (qavariq, botiq, yonbagʻir, tekislik, qiya va toʻlqinsimon tekisliklar va b.) qarab joylashuvi, tuproq turlari, grunt suvlari rejimi, iqlimiy xususiyatlar, yaylov turi va boshqalarning aniq hisobga olinishi baholashning asoslanganligiga jiddiy taʼsir etadi. Bunda suv manbalari va ularning sifati alohida eʼtiborda boʻladi.

Tuproqning sifati yoki mahsuldorligi uning turi, fizik-kimyoviy xususiyatlari, mexanik tarkibi, gumus qatlamining qalinligi va miqdori, grunt suvlari sathining joylashuvi va boshqa omillarga bogʻliqligini hech kim inkor etmaydi. Tuproq qanchalik qulay tabiiy xususiyatlarga ega boʻlsa, shunchalik katta hosildorlikka ega boʻladi. Lekin bu koʻrsatkichlar tuproqning iqtisodiy mahsuldorligi mezonlari boʻlib xizmat qila olmaydi. Tuproqni iqtisodiy jihatdan baholaganda undagi ekinlarning hosildorligi va maydon birligi (gek.) dan olingan daromad eng yaxshi va ishonchli mezonlar hisoblanadi.

Hosildorlik - qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishining soʻngi natijasi, shuning uchun ham yerning bahosini qayd qiladi. Ekinlardan olingan hosil miqdoriga

qarab, dalalarning bahosini aniqlash mumkin, tuproqning mahsuldorligi qiymati ravshan bo'ladi. Tuproq mahsuldorligi barcha tabiiy va sun'iy meliorativ ahvolni to'liq mujassamlashtiradi. Yerni iqtisodiy baholash ikki ko'rsatkichda amalga oshiriladi; yalpi mahsulot bo'yicha amalga oshirish yerning ishlab chiqarish vositasi sifatida maydon birligi bo'yicha qiymatini bilishga imkon beradi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish hajmini maydon birligida tabaqalashgan holda rejalashtirish uchun, ekin maydonidan oqilona foydalanish, soliq tizimini to'g'ri amalga oshirish va boshqalarni aniqlashda zarur. Sof daromad bo'yicha yerni iqtisodiy baholash maydon birligidan olinadigan daromadni chamalashda qo'l keladi, bu hol tabaqalashgan soliq, rentalarni aniqlashda zarur omil hisoblanadi.

Hosildorlik va sof daromad jamoa xo'jaligi hududida oldindan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmi va undan keladigan sof daromadni rejalashtirishda eng ishonchli mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Er resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer bilan bog'liq barcha muammolar 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Er kodeksi» asosida yoritib berilgan.

«Er kodeksi»da uning maqsadi hamda vazifalari asosiy printsiplar yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi Vazirlar Mahkamasining, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimiyati organlarining vakolatlari, yer zahiralari manbalari, yer uchastkalari, yer to'zishning vazifalari va mazmuni, yer monitoringi, davlat yer kadastri tushunchalari bilan ham tanishish mumkin.

SHuningdek, respublikamizda yerga bo'lgan mulkchilik, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari, yer uchastkasi ijarasi, yer uchastkalaridan imorat qurishda foydalanish tartibi, yer uchun haq to'lash, yer uchastkalari berish va davlat ro'yxatiga olish tartibi, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni bekor qilish hollari va unga bo'lgan huquqlarning kafolatlariga ham e'tibor berilgan.

SHu bilan birga, yerlarni muhofaza qilish, ekologik talablar, ulardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni iqtisodiy rag'batlantirish, muhofaza ustidan davlat nazoratini olib borish tartibi, yerdan foydalanuvchi va yer

egalariga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash hamda yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini bo'zganlik uchun yuridik javobgarlik masalalari ham yoritilgan.

«Er kodeksi» ning 28-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida Yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanadi.

O'z egaligida va foydalanishida hamda mulkida Yer uchastkalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer uchun haq to'laydilar. Yer uchun haq har yili to'lanadigan yer solig'i shaklida olinadi. Uning miqdori yer uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi. Olinadigan haq odindan belgilanadi.

Er solig'ining stavkalari, uni hisoblash va to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Er uchastkalari ijaraga berilganda yer uchun haq ijara haqi shaklida olinadi, uning miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi, lekin u yer solig'i stavkasining bir baravaridan kam va uch baravaridan ko'p bo'lmasligi kerak. Yerdan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda uning uchun haq yer solig'i stavkasining bir

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi 1997 yil 15 dekabrda qabul qilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 29 yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan «er ostidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida» gi yo'riqnoma hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 1998 yil 3 martdagi «er ostidan foydalanganlik uchun soliq stavkalari to'g'risida» gi tushuntirish xati ham masalaga oydinlik kirituvchi hujjatlar sirasiga kiradi. Masalan: «er ostidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida» gi yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi «Soliq kodeksi» ga muvofiq ishlab chiqilgan va yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibini belgilaydi.

Sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanganlik darajasi bo'yicha viloyatda asosiy yerlar Mingbuloq va Pop va To'raqo'rg'on tumanlarda joylashgan.

Kimyoviy laboratoriya taxlili natijalari shuni ko'rsatdiki tuproqlarining sho'rlanishi asosan sulg'fatli tipdir.

SHo'r yuvish bo'yicha asosan Mingbuloq, Pop va To'raqo'rg'on tumanlarini Sirdaryoning chap qirg'og'idagi xo'jalik yerlarida sho'r yuvishni talab etadi. SHo'r yuvilgan maydonlarning tuproq mexanik tarkibi va zovurlar bilan ta'minlanganligini xisobga olgan holda quyidagi sho'r yuvish miqdori belgilangan.

### 8-jadval

#### SHo'r yuvish zarur bo'lgan maydonlaridagi suv normasi

Tuproq sho'rlanishi	Tavsiya etiladigan me'yor va sho'r yuvish texnologiyasi
SHo'rlanmagan	1000 m <sup>3</sup> /ga (yaxob suvi egatlar bo'yicha)
Kuchsiz sho'rlangan	2000 m <sup>3</sup> /ga (yaxob suvi bilan birga egatlar bo'yicha sho'r yuvish)
O'rta sho'rlangan	3500 m <sup>3</sup> /ga (mayda cheklar bo'yicha sho'r yuvish -2 marta suv to'ldirish)
Kuchli sho'rlangan	5000 m <sup>3</sup> /ga (mayda cheklar bo'yicha sho'r yuvish -3 marta suv to'ldirish)

Manba, Namangan viloyati suv xo'jaligi boshqarmasi mag'lumotlari asosida tuzildi

Metodik ko'rsatmalarga binoan kuchsiz sho'rlangan maydonlar bir marta o'rtacha sho'rlangan maydonlar ikki marta, kuchli sho'rlangan maydonlar uch marta yuvish tavsiya etiladi.

SHo'r yuvish uchun kerak bo'lgan suv xajmini xisobi 8- jadvalda ko'rsatilgan.

SHo'r yuvish ishlarni nazorat qilish maqsadida ekspeditsiya xodimlaridan maxsus guruxlar to'zilib, xo'jaliklarga borib bajarilayotgan ishlarni nazorat qilish tashkil etiladi. Bu tekshiruvlar mobaynida yerlarni tekkislash va pol olish ishlariga

aloxida eʼtibor beriladi. Chunki shoʻr yuvishda yerni tekkisligi va cheklarni oʻlchovi katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari maydonlarga berilgan suvi toʻla singib tuproq tarkibida toʻzlarni yeritib oʻzi bilan birga zakan-zovurlarga oqib chiqib ketishiga erishish maqsadida tashlamalarga yoʻl koʻymaslikka katta eʼtibor qaratiladi.

SHoʻr ikki va uch marta yuviladigan maydonlarda har bir shoʻr yuvishdan soʻng tuproqdan namuna olib taxlil qilinadi.

Asosan shoʻr yuvilganda maydonlarda tuprogʻining shoʻrlanganlik darajasi kamayib borishi kerak. Xaqiqatdan shoʻr yuvilgan maydonlarda shoʻrlanish darajasi 1 aprel 2010 yil xolatiga kamayganligi qoʻyidagi jadvalda yaqqol koʻrish mumkin, oʻrtacha shoʻrlangan maydon qisman maydonlarda Mingbuloq va Pop tuman xoʻjaliklarida aniqlandi. Bu xolat sugʻorish mavsumida va yogʻingarchiliklar natijasida sugʻorishga zakan zovurlarni shoʻr suvlaridan sugʻorishga ishlatilmasa tuproqni shoʻrlanish darajasi pasayadi.

## 9-jadval

### Tuproq shoʻrlanishi yuqori boʻlgan tumanlar

№	Tumanlar nomi	Muddati	Maydonlari. ming.ga				
			SHoʻrlan magan	Kuchsiz shoʻr-n	Oʻrtacha shoʻr-n	Kuchli shoʻr-n	Oʻta kuchli shoʻr-n
1	Mingbuloq	01,10,2009	21.48	11.23	4.78	0.31	
		01,04,2010	32,71	4,816	0,27		
2	Pop	01,10,2009	31.60	4.6	2.97	0.67	
		01.04.2010	36,29	3,27	0,368		
3	Toʻraqoʻrgʻon	01,10,2009	18.45	0.4			
		01.04.2010	19,11				

Manba, Namangan viloyati suv xoʻjaligi boshqarmasi maʼlumotlari asosida tuzildi

### 2.3. Qishloq xoʻjaligida yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari

Namangan viloyatida yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish uchun yer resurslarini kadastri va bonitirovkasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kadastr (fransoʻzcha-reestr,

ro'yxat) - ob'ekt yoki hodisa to'g'risida jamlama sifatida va miqdoriy ma'lumotlarning tizimli majmuasi hisoblanadi, ko'p hollarda ular iqtisodiy baholashni nazarda tutadi. Kadastrning turlari ko'p. Yer kadastri quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: a) yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ro'yxatdan o'tkazish; b) yerni miqdoriy hisobi; v) yerning sifati; g) tuproq bonitirovkasi; d) yerlarni iqtisodiy baholash.

Tuproq bonitirovkasi - tuproqning unumdorligi bo'yicha nisbiy baholashdan iborat. Qiyosiy baholash tuproqlarni majud ob'ektiv xususiyatlari va belgilari asosida amalga oshirish, bular qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishida eng muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bonitirovkada miqdoriy ko'rsatkichlar (ballar) qo'llaniladi. Ular bir tuproqni ikkinchi tuproqdan qanchalik yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bunda tuproqning eng muhim xususiyatlari va hosildorligi e'tiborga olinadi. Boshqacha aytganda, tuproq bonitirovkasi-bu, tuproqning hosildorligini ball hisobida agronomik inventarizatsiya qilish bo'lib, ball tuproqning asosiy xususiyatlari va eng muhim qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha hosildorligi hamda tabiiy yaylov (pichanzor) larning mahsuldorligi hisoblangan ko'rsatkichidir.

Tuproq bonitirovkasi yer kadastrining asosiy qismlaridan biri bo'lib, yer fondini miqdor va sifat jihatdan hisobga olish hisoblanadi. Miqdoriy hisobga olishning mohiyati yerdan foydalanish va ekinlarning turi bo'yicha maydoni hisobida taqsimlanishni ko'rsatadi. Haydaladigan, sug'oriladigan yerlar, bog'lar, pichanzor, yaylovlar va boshqalarning maydoni hisobga olinadi. Sifat jihatidan inventarizatsiya qilishda tuproqning asosiy xususiyatlari, ayniqsa, unumdorligi hamda mehnat mahsuli-ekinlarning hosildorligi (ko'rsatkichi) hisobga olinadi. Bunda har bir yer uchastkasining haqiqiy va potentsial (imkoniy) mahsuldorligi, shuningdek, butun jamoa xo'jaligi, tuman va viloyat bo'yicha ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bunday tartibda yer uchastkalarini hisobga olish qishloq xo'jalik yerlarini (ekinzorlarini), haydaladigan yerlar, pichanzor, yaylov, o'rmon va boshqalarning mahsuldorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda zarur bo'ladi. U xo'jaliklarning to'g'ri ixtisoslashuvi va tarmoqlarning oqilona almashib kelishi,

yerlarni melioratsiya qilishda kapital mablag' sarflashni rejalashtirishda asos bo'ladi. SHu bilan birga tuproq bonitirovkasi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, maълum hududlarni (jamoа xo'jaligi, tuman, viloyat) tuproqlarining unumdorligi bo'yicha guruhlarга birlashtirish va solishtirish uchun imkon beradi, fermer xo'jaliklari va ishlab chiqarish faoliyatiga hududning iqlimiy va iqtisodiy sharoitlarini eъtiborga olib ob'ektiv baho berish, tuproqlardan oqilona foydalanish asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, bu boradagi imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Bonitirovkada paxta, don, sholi, em-xashak, qand lavlagi yetishtirish, tabiiy o't va o'rmonlar, bog'lar tashkil qilish uchun eng qulay sharoitlarni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi. U qishloq xo'jalik mutaxassislariga sug'orma, lalmi yerlardan, yaylovlardan jadal foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishda yordam beradi. Bonitirovka asosida tuproq sifatiga mos keladigan hosildorlikni oldindan belgilash, tuproqqa solinadigan mineral va organik o'g'itlar miqdorini aniqlash mumkin. Bonitirovka tuproqning qanday chora-tadbirlarga muhtojligi, eroziya va deflyatsiya, qurutish melioratsiyasi, fitomelioratsiya tadbirlarini amalga oshirish zarurligini hudud bo'yicha hamda ayrim areallarda muntazam keng miqyosda qo'llashni asoslaydi.

Bonitirovka usullari va bonitirovka shkalasi baholash mezonlari bo'yicha farqlanadi. Bunda tuproqning ayrim tabiiy xususiyatlari yoki ushbu xususiyatlaridan jami baholashda foydalaniladi. Lekin baholash jarayonida tuproqning qishloq xo'jalik ekinlari rivojlanadigan sharoitlarini belgilovchi xususiyatlari va belgilari asos qilib olinadi. SHuning uchun ham maълum xususiyatlarga ega bo'lgan tuproq bir turdagi ekin uchun qulay, boshqa turdagi ekinlar uchun esa noqulay bo'lishi mumkin.

Tuproqlarni xususiyatlari bo'yicha baholash mantiqan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini nazorat qiladi. Tuproqlarni baholashda ularga jiddiy taъsir etuvchi omillar, yaъni relъef, grunt suvlari sathi va mineralashuv darajasi, iqlim xususiyatlari, gruntning suv o'tkazuvchanligi, yotqiziqslarning litologik tarkibi, yerning o'lchamlari va boshqalarga katta ahamiyat beriladi.

**Er va undan foydalanish darajasi o'zgarishining yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga taʼsirining tahlili.**

t/r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi maydon va bazis yilidagi yer mahsuldorligi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (Q,-)	SHu jumladan omillar taʼsiri	
						er maydoni hisobiga	e r mahsuldorligi hisobiga
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, ga	288,5	312	312	Q23,5	X	X
2	er mahsuldorligi, ming so'm	402,1	402,1	427,1	Q25	X	X
3	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti, ming so'm	1160 18	125455	133248	Q17230	Q9437	Q7793

**Manba, Namangan viloyati suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.**

Sug'oriladigan va lalmi yerlar mahsuldorligini yaxshilash choralari quyidagilardan iborat: Yerlarni kapital va joriy tekislash, sho'r yuvishni o'z vaqtida sifatli o'tkazish, mineral va organik o'g'itlardan oqilona foydalanish, paxtazorlar maydonini qisqartirish, tuproqlarni bonititlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish barcha resurslar bilan taʼminlanish va ayniqsa ulardan foydalanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. SHular orasida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi tariqasida muxim o'rinni egallaydi.

Aslida, yer maydoni va yerdan foydalanish darajasining o'zgarishi bilan yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi orasida bevosita bog'liqlik mavjud. Ushbu omillar darajalarining oshishi yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ijobiy taʼsir qilgan, natijada yalpi mahsulot hajmini ko'payishiga sababchi bo'lgan. Ikki omil ham yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ijobiy taʼsir qilgan, natijada yalpi mahsulot hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 17230 ming so'mga ko'paygan. Demak, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining fizik miqdori oshgan.

Namangan viloyati buyicha 2010 yilda sug'oriladigan umumiy ekin maydoni 282440 gektarni tashkil etadi. SHundan 136366 gektar maydon zakan-zovur tarmoklari bilan ta'minlangan

Zakan-zovur tarmoklarini umumiy o'zunligi 5070,7 km , shundan 1813,8 km xo'jaliklararo zovur, 3227,3 km xo'jalik ichki zovur, 29,6 km yetik-epik zovurlar. Bu esa Mingbuloq tumani Achchiq-ko'l massivi xududidagi sug'oriladigan yer maydonlari meliorativ xolati yaxshilandi.

Viloyatda 2006 yil 1 noyabr xolatiga to'zilgan meliorativ kadastrada 7205 gektar qoniqarsiz maydonlar aniqlangan bo'lsa, 2012 yilda barcha rejadagi meliorativ tadbirlarni sifatli bajarilishi xisobiga ushbu maydon 6721 gektarga kamaydi yoki 484 gektar maydonlarni meliorativ xolati yaxshilandi. Yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish imkoniyatlari bo'lib, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yaroqli bo'lgan yer maydonini ko'paytirish, ayniqsa yerdan foydalanish darajasini oshirish hisoblanadi.

Namangan viloyatida paxtachilikni istiqbolda rivojlantirish butun ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish, tuproq iqlimiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda navlar bo'yicha rayonlashtirish bilan bog'liq. Ayni paytda istiqbolli ertapishar, serhosil, yuqori texnologik xususiyatlarga ega g'o'za navlarini yaratishda genetika va selektsiya hamda biotexnologiya va gen injeneriyasining so'nggi yutuqlarini doimiy sur'atda tadbiq qilish ham juda muhim ahamiyatga egadir. Suv va yer resurslaridan samarali foydalanish qishloq va suv xo'jaligi tizimida asosiy o'rin tutadi. Mintaqada qishloq xo'jaligi ekinlarini yer va suv resurslarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda joylashtirish maqsadga muvofiq. Yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan suvdan foydalanuvchilarning manfaatlarini oshirishga qaratilgan amaliy tadbirlar bilan bog'liqdir. SHuningdek, suvdan foydalanish samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, melioratsiya va irrigatsiya tadbirlarini har bir hudud iqtisodiy-geografik xususiyatlari (tuproq turlarining tarqalishi, suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, melioratsiya va irrigatsiya tizimlari, yer osti suvlarining ko'tarilish darajasi, sho'rlanish, suv va deflyatsiya (shamol) eroziyasining

rivojlanganligi va boshqa omillar) ni hisobga olish muhim iqtisodiy-ekologik ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Er resurslaridan samarali foydalanish kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha davrlari uchun g'oyat dolzarb ahamiyatdagi masalalardan biri bo'lib kelgan. Bu munosabatni har tomonlama chuqur va ilmiy jihatdan tadqiq etish masalasini shu kunning ob'ektiv zaruriyati sifatida baholash mumkin. Yer mohiyatan inson xo'jalik faoliyatining boshlang'ich manbaasi hisoblanadi hamda qolgan barcha resurslar va munosabatlarning o'zaro aloqadorligi ham aynan shu resursga asoslanadi. Inson xo'jalik faoliyati qirralari va ko'lamining tobora kengayib borayotganligi, demografik vaziyatning (nafaqat aholi sonining o'sishi, balki, uning boshqa tarkibiy sifat ko'rsatkichlari misolida) chuqurlashuvi, resurslar safarbarlik darajasi oshib borishi bilan tabiiy muhitning "zo'riqishi" yer resurslaridan foydalanishning nafaqat iqtisodiy samaradorligini, balki, geoekologik oqibatlarini ham o'rganishni kun tartibiga qo'yamoqda.

Namangan viloyatida uzoq yillar davomida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha asosan kollektor-drenaj tarmoqlarini qurish, tiklash va ta'mirlash ishlari bajarilib kelindi. Ammo, qancha mln. m<sup>3</sup> kollektor-drenaj tarmoqlari tozalanmasin, baribir o'rtacha, kuchli sho'rlangan yerlar hamon ko'payib bormoqda.

Erlarning sho'rlanish jarayoni ko'p omillarga bog'liq, ammo ko'p mutaxassislarning fikricha, agar kollektor-zovur tarmoqlarini normativ bo'yicha tozalansa yerlarning sho'rlanish jarayoni sekinlashadi deb xisoblaydi.

Lekin, sug'oriladigan yerlarni sho'rsizlantirishda kollektor-drenajlarning ishchi holati muhim rol o'ynaydi, ammo sug'oriladigan yerlarni sho'rsizlantirish uchun kompleks agrotexnik tadbirlar olib borilishi lozim: Bunda

- Meliorativ ekspeditsiyalar tavsiyalariga ko'ra sho'ri yuvilishi lozim deb topilgan maydonlarni fermer xo'jaliklari va dalalar (kontur) kesimida aniqlash;

- SHO'r yuvish rejalashtirilgan har bir maydon bo'yicha sho'r yuvish turini tanlash (kuchli sho'rlangan yerlarda-cheklar, o'rtacha va kam sho'rlangan yerlarda - polosalar yoki egatlar yordamida);

- Yerni haydash va yumshatish, tekislash va planirovka qilish, chizellash, mola bosish kabilar kiradi;

Sug'oriladigan yer maydonlarida kollektor-drenaj tizimlari bosimli yer osti suvlari, tuproq osti grunt suvlarining zaruriy qismini o'z vaqtida sug'orish maydonlaridan chiqarib tashlash va sizot suvlar sathini mo'ljallagan chuqurlikda saqlash bilan birga ekiladigan yerlarda tuproq suv va tuz muvozanatini meyyooriy darajada saqlab turish qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l hosil yetish tirish uchun sharoit yaratadi.

Namangan viloyatida yer resurslaridan foydalanishni tashkil etishda, birinchi, o'ziga xos xususiyatlar va mavqega ega hisoblangan. Namangan viloyati mintaqasida qishloq xo'jaligida yerlardan foydalanishni hududiy tashkil etishning tabiiy va iqtisodiy-geografik, demografik, tarixiy, geoekologik shartlari hamda ularning majmualari baholanishiga erishilganligi, hududiy tashkil etish nazariyasida ilk bor qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishning hududiy tashkil etish jarayonini sub'ekt (qishloq xo'jaligi) va ob'ekt (er resurslari) imkoniyatlari bo'yicha baholash tamoyillarining ishlab chiqish, ikkinchi, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda barqaror rivojlanish tamoyillari va bozor iqtisodiyoti talablari hisobga olingan holda, hududning tabiiy-agrar imkoniyatlari bo'yicha iqtisodiy-geografik rayonlashtirilish, uchinchi, Namangan viloyati aholisi xo'jalik faoliyatini tarixiy o'rganish nuqtai nazaridan, qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishni hududiy tashkil etishda mintaqada shakllangan an'ana, ko'nikma va tajribalardan foydalanish qonuniyatlarining aniqlash, to'rtinchi, yer resurslaridan foydalanish bo'yicha mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, yer resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini baholashda "geotriion"lar usulini qo'llagan holda, uning boshqa mintaqalar bilan o'zaro taqqoslab o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

SHu bilan birga yer resurslaridan samarali foydalanishda gidrogeologik sharoitni, xususan, sug'oriladigan tuproqlarning sho'rlashuvi, botqoqlashuvi kabi salbiy jarayonlar, yer osti suvlarining o'rtacha chuqurligi, ularning oqimi, tabiiy drenaj holati bilan bir qatorda suv bilan ta'minlanganlik darajasini ham o'rganishga alohida e'tibor qaratish kerak. Bu jihatning alohida o'rganilishiga

ehtiyoj birinchidan, mintaqada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer resurslarining katta qismi sug'orma dehqonchilik amaliyoti bilan bog'liqligi, ikkinchidan, Namangan viloyatida sun'iy suv havzalarini bunyod etishning bugungi kunda ham qizg'in amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

Namangan viloyatida yer resurslaridan foydalanishni takomilashtirish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish uchun yer resurslarini kadastri va bonitirovkasini aniqlash shu orqali yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish imkoniyatlari istiqbolda Namangan viloyati yer resurslaridan samarali foydalanishga uchun zamin yaratiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Qonunlar, qarorlar va farmonlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. O'zbekiston 2001. 3-bo'lim 12-bob. 55-modda. 11 b.
2. Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi Qonun. O'zbekistonning yangi qonunlari. 1993. 8 mart. 8-son. T. Adolat, 56-103 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. O'zbekiston nashriyoti. 1996, 74-modda. 36 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari-T.: Adolat. 1999. - B.448
5. Soliq kodeksi Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi. -T.: 2004. 78-80 b
6. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O vajneyshix napravleniyax uglubleniya reform v sel'skom xozyaystve». 24 marta 2003 g. N UP-3226.  
[http://www.pravo.uz/archive/get\\_data.php3?topicq31740&subq0#0](http://www.pravo.uz/archive/get_data.php3?topicq31740&subq0#0)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-4478-sonli Farmoni; O'zbekistonning yangi qonunlari 2012 27-38 b
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash va suv resurslaridan ratsional foydalanish bo'yicha 2013-2017 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risidagi" Farmoni O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami 2013. 23 aprel (101-103)
9. «Meva-sabzovotchilik va uzumchilik soxasini islox qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 11 yanvar 2006 yil. №PK-255 T. «Xalq so'zi gazetasi»-2006 yil 12 yanvar, №7 (3806).
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi 2003 yil 28 iyundagi 290-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish xaqida» Qarori. № 257. 2004 yil 4 iyun'. T., O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2004. 22-23 (106-107)-son. -12-b.

11.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, rasmiy nashr. 2003. 20-son. - 95-97 b.

12.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2004 y. 24 dekabr 607-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. T., rasmiy nashr, 2004, 52-son. 5-6 b.

14.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Kafolatlangan suv ta'minotini yaxshilash va Sirdaryoning mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida 46-sonli qarori. 2003. 25 yanvar (maxsus qaror). O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami 203. 28-36 b

15.O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasining “Suv xo'jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida”gi 2003 yil 21 iyuldagi 320-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, rasmiy nashr. 14-son. 25-27 b.

16.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T., Qomuslar bosh taxririya. 1997, B. 287.

17.O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. 12-jild- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.- B.302.

18.Suv xo'jaligi departamenti to'g'risida Nizom. T., O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2001. 6(18)-son. -30-36 b.

19. Yerdan foydalanish va uni muxofaza qilish ustidan Davlat nazorati to'g'risida Nizom. T., O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2005 yil. 2-son. -54 59-b.

20.2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi “Xalq so'zi” gazetasi 2014 yil 18 yanvar №13 (5953)

## 2. Kitob va turkum nashrlari

21. Karimov I.A. O'zbekiston islohotlari chuqurlashtirish yo'lida-T., «O'zbekiston», 1995. 60-62-77 b.
22. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat mafkura. T.1. -T., «O'zbekiston», 1996. - B.364.
23. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T., «O'zbekiston», 1997. 121-124 b.
24. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti-to'kin hayot manbai-T., «O'zbekiston», 1998. -B. 411.
25. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T 7. -T., «O'zbekiston», 1999. -B.410.
26. Abdullaev O. Namangan viloyati.- Namangan. 1995. -12-13 b.
27. Abdullaev O. Farg'ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari.- Namangan. 2000, 24 b.
28. Abdullaxonov R.A. O'zbekistonda suv xo'jaligi kompleksi va uning muammolari. -T., 2003. - 28-32 b.
29. Abdullaxanov R.A. O'tish davrida suv xo'jaligi majmuasi va suv resurslaridan samarali foydalanish.i.f.n.darajasini olish uchun avtoreferat.- T. FarDU, 2003. -20 b.
30. Abdug'aniev A, Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. -T.: TDIU, 2004.- 84 b.
31. Axmadaliev Yu.I /Er resurslaridan foydalanish geoekologiyasi -T Fan va texnologiya nashriyoti 2014 187-210b
32. Axmadaliev Yu.I Farg'ona vodiysi yerlarining tuproq-ekologik xolatini baxolash /O'zbekiston geografiya jamiyati axborotnomasi -Toshkent,2005.-26-jild. 16-20b
33. Bobojonov A, Aliqulov /.Erdan foydalanish samaradorligini oshirish nimalarga bog'liq. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -2001,- № 3. -51-53 b.
34. Baratov A. Agrar soxalarni rivojlantirish muammolari. Geografiya tarixi: Xotira va qadryatlar // Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari - Namangan., 2005. 128 b.
35. Jumanov D., Mo'minov K., Toshtemirov A. Suv va xosil. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi.- 2004,- № 3.- 23-24 b.

36. Islamov SH. Effektivnost' ispol'zovaniya nasosnykh stantsii. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -2006,- № 2.- 34-35 b.
37. Korshunova V.S. Ekologiya rechnykh basseynov. // Vodnye resursy. M., «Nauka», t.27, №5, 2000, -S.638-640.
38. Neg'matjonov.U Mushtarak maqsadlar yoki suv resurslari tanqisligini kamaytirishning davlatlararo imkoniyatlari. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -2001,- № 3.- 50-51 b.
39. Nasritdinov Q. Suv omborlari. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -2000,- № 3.- 43-44 b.
40. Namangan viloyati Qishloq va suv xo'jaligi ma'lumotlari.(2012 yil)
41. Olimjonov O. Yer – xazina. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -2004,- № 3.- 8-9 b.
42. Ramazonov O.Yusupbekov O.Sulaymonov.N. Sug'oriladigan dexqonchilik: muammo va muloxazalar. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -2001,- № 4.- 52-53 b.
43. Siddiqov X., Mamadjanov N. Melioratsiya i ekologiya. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -2004,- № 8.- 34 b.
44. Sobirova Z. Vaziyat va imkoniyatlar: Bozor iqtisodiyoti sharoitida suv manbaalaridan samarali foydalanish yo'llari. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -2006,- № 6.- 54-55 b.
45. Soliev B. Qishloq xo'jaligi va ekologiya. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -2001,- № 3. -54-55 b.
46. Hamraev N.R. Vodosberejenie i vodoobespechenie ustoychivogo razvitiya zasushlivykh territoriy.– T., «CHinor» ENK, 2000, 84 s.
47. <http://www.msvx.uz/rus/about.php> (O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi internet sayti).
48. <http://www.cawatEr-info.net/>

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**Tabiiy fanlar fakul'teti**  
**5440500- geografiya ta'lim yo'nalishi**

bitiruvchisi \_\_\_\_\_ ning

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga DAKning xulosasi NamDU DAK OUMTVning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar haqidagi 09.06.2010 yil 225-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomga asosan bitiruvchining malakaviy ishi bo'yicha quyidagi xulosaga keldi:

<b>№</b>	<b>Bitiruv malakaviy ishining darajasi</b>	<b>Ball</b>
1.	Xajmi va sifatli rasmiylashtirish (tushuntirish xajmi 10-15 ming so'z xajmida, chizmalar A2 formatli qog'ozda 5-6 varaq bo'lishi kerak):	
	A) talabga javob beradi	10
	B) talabga javob berishi to'la emas	8
	V) rasmiylashtirish sifatli emas	6
2	Mavzuning ta'minlanishi	
	A) buyurtmachi tashkilot tavsiya qilgan	10
	B) davlat dasturi yoki grant loyixasi bo'yicha	8
	V) NamDU dasturi yoki boshqa dolzarb muammo	6
3	Mavzu dalzarbligini asoslash:	
	A) etarli darajada asoslangan	10
	B) etarli darajada asoslanmagan	8
	V) noaniq asoslangan	6
4	Maqsad va vazifalarini ifodalanganligi:	
	A) aniq	10
	B) aniqligi to'la emas	8
	V) aniq emas	6
5	Ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanish:	
	A) to'la	10
	B) qisman	8
	V) etarli foydalanmagan	6
6	Olingan natijalarni yangilik va ishonchlik darajasi:	
	A) yangi va ishonchli	10
	B) ilgari olinganga qiyoslangan	8
	V) ishonchligi to'la emas	6
7	Ximoya qismining mazmuni:	
	A) bevosita qo'llshaga tavsiyalar berilgan	10
	B) tavsiyalar ishonchli emas	8
	V) tavsiyalar tushunarsiz va umuman berilmagan	6
8	Adabiyotlardan foydalanish?	
	A) Xorijiy, O'zbekiston Respublikasi ilmiy jurnallari, monografiyalar, internet materiallaridan etarli miqdorda	10
	B) ilmiy adabiyotlardan etarli qisman foydalangan	8
	V) faqat darslik, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatmalar, ma'ruza matnlari, ma'lumotnomalar va boshqalardan	6
9	Ximoya (ma'ruza) qilish:	
	A) a'lo	10
	V) yaxshi	8
	V) qoniqarli	6
10	Tashqi taqriz:	
	A) a'lo	10
	b) yaxshi	8
	V) qoniqarli	6
	BMI bo'yicha yig'ilgan yakuniy ball	

Izox: xar bir band bo'yicha aniqlangan ball doiraga olib chiqiladi va umumiy yig'ilgan ballni 100 ga nisbatan foizi chiqariladi.

**Talabning BMI bo'yicha to'plangan reyting, bali \_\_\_\_%**

**DAK raisi:** \_\_\_\_\_

**DAK raisi o'rinbosari:** \_\_\_\_\_

**A'zolari:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Kotib(a)** \_\_\_\_\_

**M.O`**

**g.f.n. A. Isayev**

**dots. A. Nazarov**

**dots. A. Baratov**

**prof. B. Kamalov**

**o'qit. S. Saydaliyev**

**o'qit. A. Mavlonov**

**o'qit. I. Soliyev**

sana «\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 y